



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI  
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH  
MILLIY AGENTLIGI**

# **KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TASHKILOTLARINI**

## **MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN**

O'TKAZISHGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA

**QO'LLANMA**



[www.nqaae.uz](http://www.nqaae.uz)



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY  
AGENTLIGI

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish  
ta'lim dasturlarini  
**MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN**  
o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha  
**QO'LLANMA**

Mazkur qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlari tomonidan, ularning idoraviy mansubligi va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonida ichki (o'zini-o'zi) baholashni samarali tashkil etish maqsadida foydalanish uchun tavsiya etiladigan uslubiy qo'llanma hisoblanadi.

Qo'llanma kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarida joriy etilayotgan hamda amaldagi malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim dasturlarining davlat ta'lim standartlari hamda maxsus davlat akkreditatsiyasi mezonlariga muvofiqligini baholash, shuningdek, ta'lim dasturlarini takomillashtirish, ularning sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan nazariy hamda amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Qo'llanmada malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish doirasida belgilangan har bir baholash yo'nalishi, mezon va indikatori kesimida tahlil o'tkazish, zarur ma'lumotlarni shakllantirish, shuningdek, baholash natijalarini asoslovchi tegishli dalillar va hujjatlarni aniqlash hamda rasmiylashtirish tartibi batafsil bayon etilgan.

Ushbu qo'llanma kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlari rahbarlari, ta'lim sifatini ta'minlash bo'linmalari xodimlari hamda professor-o'qituvchilar uchun ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida amaliy va uslubiy qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

## MUNDARIJA

Qo'llanilgan qisqartma so'zlar.....	4
KIRISH.....	5
ASOSIY TUSHUNCHALAR VA TERMINLAR.....	7
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASI UCHUN ARIZANI RASMIYLASHTIRISH TARTIBI.....	8
ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI SHAKLLANTIRISH.....	9
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TA'LIM DASTURLARINI BAHOLASH YO'NALISHLARI, MEZONLARI, INDIKATORLARI.....	11
I. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi.....	11
II. Ta'lim dasturlari yo'nalishi.....	18
III. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi.....	25
IV. Tinglovchilar faoliyati yo'nalishi.....	33
V. Inson resurslari yo'nalishi.....	39
VI. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi.....	48
ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI KO'RIB CHIQISH.....	62
BAHOLASH YO'NALISHI MEZON VA INDIKATORLAR BO'YICHA NATIJALARNI HISOBLASH.....	63
<i>Ilova: kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'lim dasturi bo'yicha ichki baholash hisobot shakli.....</i>	65
ICHKI BAHOLASH NATIJALARI BO'YICHA XULOSA .....	80
Ta'lim dasturini takomillashtirish bo'yicha HARAKATLAR REJASI.....	81
QAYDLAR UCHUN.....	82

**Qo'llanilgan qisqartma so'zlar**

<b>Qisqartmalar</b>	<b>Mazmuni</b>
ARM	Axborot resurs markazi
AKT	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
DTS	Davlat ta'lim standarti
LMS	Ta'limni boshqarish tizimi
MMR	Milliy malakalar ramkasi
MOQT	Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkiloti

## KIRISH

Ushbu qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 5-maydagi PF-76-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, ta'lim tashkilotlariga ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonlarini ichki (o'zini-o'zi) baholash jarayonlarini samarali tashkil etish uchun uslubiy jihatdan yordam berish maqsadida ishlab chiqilgan.

Qo'llanma ta'lim tashkilotlariga ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonlarida ichki (o'zini-o'zi) baholashni samarali tashkil etishga uslubiy jihatdan ko'maklashish maqsadida tayyorlangan.

Shuningdek, qo'llanmada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi direktori tomonidan 2025-yil 22-dekabrda qabul qilingan "Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda baholash mezonlari bo'yicha indikatorlarni tasdiqlash haqida"gi 8-son buyruq (ro'yxat raqami — 3747) bilan tasdiqlangan indikatorlar asosida zarur ma'lumotlarni taqdim etishga yo'naltirilgan.

Qo'llanma ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonlarini yagona talablar asosida tashkil etish, baholash yo'nalishlari, mezonlari va zarur hujjatlarni aniq belgilash, shuningdek, ta'lim tashkilotlariga ichki (o'zini-o'zi) baholash hisobotini to'g'ri shakllantirish, asoslovchi hujjatlarni yig'ish va tashqi baholash jarayoniga samarali tayyorgarlik ko'rishda metodik yordam ko'rsatadi.

Ichki baholash hisobotini tayyorlash bo'yicha yagona ko'rsatmalarga rioya etish ta'lim tashkilotlari hamda tashqi baholashni amalga oshiruvchi ekspert komissiyalarining ish samaradorligini oshiradi va baholash jarayonlarini soddalashtiradi.

Ichki baholash jarayonining asosiy maqsadi tegishli ta'lim dasturlarini har tomonlama va chuqur tahlil qilish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hamda kelgusida ularning samaradorligini oshirish uchun asos yaratishdan iborat.

Ichki baholash jarayonida ta'lim tashkiloti ta'lim dasturlarini tahliliy va tanqidiy baholash asosida o'rganadi.

Ichki baholash hisoboti tegishli baholash yo'nalishlari va mezonlariga muvofiq tuzilgan bo'lim va boblardan iborat tahliliy ma'lumotnoma shaklida tayyorlanadi.

Ichki baholash hisobotiga kiritilgan miqdoriy ko'rsatkichlar ta'lim tashkiloti tomonidan o'tkazilgan ichki baholash natijalarining sifatli tahlilini to'ldiradi.

Ta'lim dasturi bo'yicha ichki baholash hisoboti ekspert komissiyalari tomonidan tashqi baholash jarayonida to'liq axborot olish, shuningdek, tegishli ta'lim dasturi sifatini baholash uchun asosiy manba sifatida foydalaniladi.

Ichki baholash hisobotini tayyorlash maqsadida ta'lim tashkiloti ma'muriyati, pedagoglari, tinglovchilari, shuningdek, ish beruvchilar va (yoki) ijtimoiy hamkorlar vakillaridan iborat ishchi guruh tashkil etilishi mumkin.

Ichki baholash hisobotini tayyorlashda quyidagi talablarga rioya etilishi shart:

- mazkur qo'llanmada belgilangan ketma-ketlik asosida shakllantirish;
- har bir keltirilgan ma'lumotni aniq, tushunarli va dalillar bilan asoslash;
- davlat tili va grammatik me'yorlariga qat'iy amal qilish;
- huquqiy va akademik terminologiyadan to'g'ri foydalanish;
- istiqbolli rejalar, loyihalar va kutilayotgan natijalarni aniq ko'rsatish;
- har bir baholash mezoni bo'yicha qisqa, aniq va dalillarga asoslangan ma'lumotlarni kiritish.

**ASOSIY TUSHUNCHALAR VA TERMINLAR**

Ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish bilan bog'liq hujjatlar O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlari asosida rasmiylashtiriladi.

Shuningdek, ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishning ichki baholash hisoboti Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan nizom va ushbu qo'llanmaning asosiy tushuncha va terminlaridan foydalangan holda shakllantiriladi.

Yuqorida qayd etilgan normativ-huquqiy hujjatlardan tashqari quyidagi tushuncha va terminlar davlat akkreditatsiyasi jarayonlarida keng foydalaniladi:

**Maxsus vakolatli organ** – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) davlat akkreditatsiyasini o'tkazish organi.

**Baholash yo'nalishi** – ta'lim dasturining sifati va samaradorligini baholash uchun belgilangan asosiy yo'nalishlar majmui bo'lib, ta'lim dasturining mazmuni, o'qitish jarayoni, professor-o'qituvchilar salohiyati, tinglovchilarga ko'rsatiladigan xizmatlar, moddiy-texnik baza, infratuzilma, boshqaruv va natijalar kabi yirik tarkibiy sohalarni qamrab oladi;

**Mezon** – muayyan baholash yo'nalishida ta'lim dasturining sifatiga qo'yiladigan minimal talablar va standartlar majmui. Mezon ta'lim dasturining muayyan sohada (masalan, ta'lim natijalari, moliyaviy barqarorligini ta'minlash, baholash tizimi, kadrlar salohiyati) qay darajada talablarga muvofiq ekanligini aniqlash uchun asos bo'ladi;

**Indikator** – Agentlik tomonidan belgilangan mezon bajarilishini aniq, o'lchab bo'ladigan, asoslantiruvchi dalillar bilan tasdiqlanadigan ko'rsatkich. Indikator orqali ta'lim dasturining mezonga mosligi faktlar, raqamlar, hujjatlar, jarayonlar yoki natijalar asosida baholanadi;

**Ichki baholash hisoboti** – ta'lim tashkiloti tomonidan har bir ta'lim dasturini davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish bo'yicha tayyorlanadigan hujjat bo'lib, ta'lim dasturini baholash yo'nalishlari, mezonlar va indikatorlarga qanchalik mosligi haqidagi tahlillar, dalillar va xulosalarni o'z ichiga oladi;

**Ta'lim tashkiloti** – Kadrlarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish ta'lim tashkiloti;

**Asoslantiruvchi dalillar** – mezon yoki indikator bajarilganini tasdiqlaydigan hujjatlar, ma'lumotlar, statistika, jarayonlar, qarorlar, foto/video materiallar yoki boshqa aniq asoslar.

## **MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASI UCHUN ARIZANI RASMIYLASHTIRISH TARTIBI**

Maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish to'g'risida arizalar Agentlikning Ta'lim tashkilotlarini davlat akkreditatsiyadan o'tkazish va reytingini yuritish bo'yicha **“accreditation.nqaae.uz”** axborot tizimi orqali elektron shaklda qabul qilinadi.

Ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish to'g'risida arizalar kelgusi o'quv yilida faoliyatini boshlash uchun **har yili 1-oktabrdan kelgusi yilning 31-yanvarigacha** qabul qilinadi.

Ushbu muddatlardan tashqari boshqa muddatlarda maxsus davlat akkreditatsiyasi ta'lim tashkilotining murojaatiga asosan, Agentlik bilan tuziladigan shartnoma shartlari va oshirilgan to'lov asosida amalga oshiriladi.

Davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish to'g'risidagi arizani shakllantirish, qo'shimcha hujjatlarni taqdim qilish va ularni ko'rib chiqish Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida” nizomda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda ta'lim tashkilotining qonuniy vakili yoki ariza beruvchi belgilangan talablar asosida ariza topshirish, yig'implarni belgilangan muddatlarda amalga oshirish, Agentlik va ta'lim tashkiloti o'rtasida shartnomani rasmiylashtirish, ekspert komissiyasi (joyiga chiqqan holda) va Akkreditatsiya komissiyasi tomonidan qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni belgilangan muddatlarda taqdim qilishga mas'ul hisoblanadi.

**ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI SHAKLLANTIRISH**

Ichki baholash hisoboti – bu ta'lim dasturining real holatini akkreditatsiya mezonlari asosida dalillarga tayangan holda tahlil qilish va aniq takomillashtirish choralari belgilaydigan asosiy sifatni baholash hujjati bo'lib, unda keltirilgan ma'lumotlar ekspert komissiyalari tomonidan ta'lim dasturlarini tashqi baholash jarayonlarida foydalaniladi.

**Ichki baholash hisobotini shakllantirishning maqsadi** – ta'lim dasturining davlat ta'lim standartlari va akkreditatsiya mezonlariga muvofiqligini baholash, ta'lim dasturining kuchli va takomillashtirilishi lozim bo'lgan jihatlarini aniqlash, ta'lim sifatini doimiy yaxshilashga qaratilgan asoslangan xulosalar va takliflarni shakllantirish, maxsus davlat akkreditatsiyasi uchun ishonchli dalil bazasini tayyorlashdan iborat.

Akkreditatsiya yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlariga qat'iy muvofiqligini ta'minlash uchun ichki hisobot amaldagi maxsus davlat akkreditatsiyasi baholash yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlari tuzilmasiga mos bo'lishi shart.

**Bunda, har bir indikator bo'yicha:**

amaldagi holat;

dalillar;

xulosa;

takomillashtirish choralari aniq bayon etilgan shakldagi hisobot tuzilishi shart.

**E'TIBOR BERING!!!**

**Ichki baholash hisobotini to'g'ri shakllantirishda mazkur qo'llanmaning “Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'lim dasturlarini baholash yo'nalishlari, mezonlari, indikatorlari” bo'limida har bir indikator bo'yicha tavsiya etilgan savollardan hamda asoslovchi dalillar (hujjatlar) ro'yxatidan foydalangan holda aniq va asosli ma'lumotlar kiritilishi lozim.**

**Shuningdek, kiritilgan ma'lumotlar hamda ularni asoslovchi dalillari (hujjatlar) elektron shaklda platformaga yuklanishi shart.**

**Ichki baholash hisobotining asoslantirilmagan umumiy bayon etilgan ma'lumotlardan iborat qismi hisobot sifatida qabul qilinmaydi.**

**Qabul qilinmagan ichki hisobot ta'lim tashkilotiga qaytarilganda, ta'lim tashkiloti 10 kunlik muddatda uni qaytadan taqdim etishi shart.**

Ta'lim tashkiloti rahbari berilgan har bir baholash xulosasi rasmiy hujjatlar, ma'lumotlar (statistika), hisobotlar, buyruqlar, qarorlar, so'rovnoma va fikr-mulohazalar tahlili bilan dalillarga asoslanganligini (Evidence-based approach) tekshirgan har bir sahifasini imzolagan holda taqdim etilishini ta'minlanishi shart.

Hisobotning haqqoniyligi va tanqidiy yondashilganligini ta'minlash uchun real holatni aks ettirishi, sun'iy "yuqori baholash"dan holi bo'lish, kamchiliklar ochiq va aniq ko'rsatilishi, sabablar tahlil qilinib, aniq yechimlar taklif qilinishi lozim.

Hisobotni milliy va xalqaro standartlar bilan uyg'un holda davlat ta'lim standartlari, milliy malaka ramkasi, akkreditatsiya mezonlari hamda xalqaro yondashuvlar bilan aks ettirilishi maqsadga muvofiq.

Ta'lim natijalari aniq, o'lchanadigan va tekshiriladigan bo'lishi, kasbiy standartlar va mehnat bozori ehtiyojlari bilan bog'liqligi, bitiruvchilarning ishga joylashish, amaliyot, dual ta'lim natijalari tahlil qilinishi lozim.

Hisobotda keltirilgan ma'lumotlarning aktualligini oshirish uchun ta'lim oluvchilar, pedagoglar, ish beruvchilar, bitiruvchilar va boshqa manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari inobatga olinishi shart hisoblanadi.

Hisobot ta'lim tashkiloti rahbari tomonidan tasdiqlanishi va elektron (zarur hollarda qog'oz) shaklda saqlanishi hamda Agentlikka tayyor holatda taqdim etilishi lozim.

### **ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI KO'RIB CHIQISH**

Ta'lim sifatini tashqi baholash uchun Agentlik tomonidan ekspert komissiyalari tashkil etiladi. Ekspert komissiyalari ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarning xususiyatidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Ekspert komissiyalari tarkibi ta'lim tashkilotlarining pedagog va rahbar xodimlari, ilmiy-tadqiqot institutlarining yetakchi olimlari, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mas'ul xodimlari, tegishli ishlab chiqarish tashkilotlarining mutaxassislari, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari hamda tinglovchilar orasidan shakllantiriladi. Ekspert komissiyalari tarkibiga xorijiy ekspertlar jalb etiladi.

Ekspert komissiyalarining vazifalari quyidagilardan iborat:

ichki baholash natijalari bo'yicha olingan ma'lumotlarni ekspertizadan o'tkazish hamda tashqi baholashni amalga oshirish;

ta'lim tashkilotidagi ta'lim sifati va mazmunining davlat ta'lim standartlari(talablari), akkreditatsiya mezonlari va ta'lim dasturlariga muvofiqligi hamda ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlarining sifati va samaradorligini baholash;

ta'lim sifatini oshirish va ta'lim xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar berish hamda tashqi baholash natijalari yuzasidan hisobotni tayyorlash va Akkreditatsiya komissiyasiga taqdim etish.

Ichki baholash hisoboti **mazkur qo'llanmaning ilovasida keltirilgan namuna** asosida shakllantiriladi.

Ta'lim tashkiloti ichki baholash natijasida shakllantirilgan hisobot va unga tegishli materiallarni elektron va (yoki) qog'oz shaklida tasdiqlangan holda tashqi baholash boshlanishidan kamida **bir oy oldin** Agentlikka taqdim etadi.

Ekspert komissiyalari ichki baholash hisobotini o'rganadi va undan tashqi baholash jarayonida foydalanadi. Ta'lim dasturi maxsus davlat akkreditatsiyasidan ekspert komissiyasi tomonidan joyiga chiqqan holda, **besh ish kunidan oshmagan muddatda** o'tkaziladi.

Tashqi baholash jarayonida ichki baholash hisobotida haqqoniy bo'lmagan ma'lumotlar aniqlanishi, shuningdek, belgilangan muddatlarda hujjatlarning taqdim qilinmasligi yoki kamchiliklarning bartaraf etilmasligi davlat akkreditatsiyasidan o'tkazmaslik uchun asos bo'ladi.

Dastlabki hisobot tashqi baholash natijalari asosida ekspert komissiyasi tomonidan **o'n besh ish kuni ichida** tayyorlanadi va Agentlik orqali ta'lim tashkilotiga taqdim qilinadi.

Ta'lim tashkiloti dastlabki hisobot bo'yicha asoslantirilgan taklif va e'tirozlarini Agentlikka **uch ish kuni ichida** rasman taqdim etadi hamda taqdim etilgan taklif va e'tirozlar asosida **uch ish kunida** ekspert komissiyasi tomonidan yakuniy hisobot tayyorlanadi.

Ekspert komissiyasi tomonidan maxsus davlat akkreditatsiyasida har bir ta'lim dasturi bo'yicha alohida hisobot tayyorlanadi.

Ta'lim tashkiloti tomonidan taqdim qilingan ichki baholash hisoboti asosida ekspert komissiyasi joyiga chiqmasdan, masofaviy shaklda tashqi baholashni amalga oshirishi mumkin.

## **BAHOLASH YO'NALISHI, MEZON VA INDIKATORLAR BO'YICHA NATIJALARNI HISOBLASH**

Baholash mezonlari majburiy va umumiy indikatorlarga bo'linadi hamda "muvofiq" yoki "muvofiq emas" tarzida baholanadi.

Mezon tarkibidagi mavjud majburiy indikator (majburiy indikatorlardan biri) “muvofiq emas” deb topilsa, umumiy natijadan qat'i nazar, ushbu mezon “muvofiq emas” deb baholanadi.

Tashqi baholash mezonlari majburiy va umumiy mezonlarga bo'linadi hamda har bir mezon “muvofiq”, “qisman muvofiq” yoki “muvofiq emas” deb baholanadi.

Tashqi baholash mezonlari majburiy va umumiy indikatorlar bo'yicha quyidagi tartibda aniqlanadi:

**Kadrlarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish ta'lim dasturlari bo'yicha:**

**60 foiz va undan ortiq** indikatorlar “muvofiq” deb baholansa — mezon “muvofiq”;

**50 foizdan 60 foizgacha** indikatorlar “muvofiq” deb baholansa — mezon “qisman muvofiq”;

**50 foizgacha** indikatorlar “muvofiq” deb baholansa — mezon “muvofiq emas” deb baholanadi.

Mezon tarkibidagi mavjud majburiy indikator (majburiy indikatorlardan biri) “muvofiq emas” deb topilsa, umumiy natijadan qat'i nazar, ushbu mezon “muvofiq emas” deb baholanadi.

Ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim dasturi har bir baholash yo'nalishi bo'yicha baholanadi.

Har bir baholash yo'nalishi “muvofiq” yoki “muvofiq emas” deb e'tirof etiladi. Bunda har bir baholash yo'nalishi quyidagi shartlar bajarilganda “muvofiq” deb baholanadi:

majburiy mezonlarning barchasi “muvofiq” deb baholanganda;  
umumiy mezonlarning ko'pi bilan ikkitasi “qisman muvofiq” deb baholanganda;

“muvofiq emas” deb baholangan mezonlar mavjud bo'lmaganda.

Akkreditatsiya komissiyasi tomonidan har bir baholash yo'nalishi “muvofiq” deb e'tirof etilganda, ushbu ta'lim dasturi “davlat akkreditatsiyasidan o'tdi” deb, “muvofiq emas” deb e'tirof etilganda esa “davlat akkreditatsiyasidan o'tmadi” deb qaror qabul qilinadi.

## KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TA'LIM DASTURLARINI BAHOLASH YO'NALISHLARI, MEZONLARI, INDIKATORLARI

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishning **6 ta baholash yo'nalishlari** doirasida **29 ta mezonlar** hamda ularni tavsiflovchi **120 ta indikatorlar** mavjud.

Maxsus davlat akkreditatsiyasidan yangi tashkil etilgan ta'lim dasturlari, shuningdek, amaldagi ta'lim dasturlari ham o'tkazilganligi sababli, ma'lum mezonlar va indikatorlar faqat amaldagi ta'lim dasturlari uchun tatbiq etiladi.

### I-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

***Izoh:** Ta'lim dasturini samarali amalga oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va ta'lim sifatini ichki ta'minlash orqali mehnat bozori ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim dasturini muntazam takomillashtirishga qaratilgan faoliyat baholanadi.*

#### 1. MEZON: Ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi

***Izoh:** Ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilmaning mavjudligi, uning vazifalari aniq belgilanganligi hamda samarali ishlash mexanizmlari yo'lga qo'yilganligi o'rganiladi.*

##### 1.1. INDIKATOR

**Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy tuzilma (institut, markaz, fakultet, kafedra, bo'lim)ni tashkil etish uchun zarur moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejalar mavjud\***

##### **Yordamchi savollar:**

- ❖ *Tarkibiy tuzilmani tashkil etish bo'yicha hujjatlar va uning vazifalari qanday belgilangan?*
- ❖ *Tarkibiy tuzilmani moddiy-texnik baza bilan ta'minlash bo'yicha qanday chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan?*
- ❖ *Tarkibiy tuzilmaga zarur moliyaviy resurslarni ajratish qanday tartibda amalga oshiriladi va bu jarayonni moliyalashtirish rejasi qanday shakllantirilgan?*

##### **Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Tarkibiy tuzilma, kafedra yoki bo'limni tashkil etish to'g'risidagi hujjatlar*
- ✓ *Moddiy-texnik, moliyaviy va inson resurslari bilan ta'minlash to'g'risidagi reja*

## 1.2. INDIKATOR

**Tarkibiy tuzilmaning vakolatlari, vazifalari va funksiyalari ta'lim dasturini samarali amalga oshirishga yo'naltirilgan va ta'lim dasturi doirasida belgilangan maqsadlarga uyg'un tarzda aniq belgilangan**

***Yordamchi savollar:***

- ❖ *Tarkibiy tuzilmaning vakolatlari, vazifalari va funksiyalarining belgilanganligi?*
- ❖ *Tarkibiy tuzilmaning faoliyati ta'lim dasturini samarali amalga oshirishga qanday hissa qo'shadi?*
- ❖ *Tarkibiy tuzilma vakolatlari va vazifalarining ta'lim dasturi maqsadlariga uyg'unligi qanday tartibda ko'rib chiqiladi?*

***Asoslantiruvchi hujjat(lar):***

- ✓ *Tarkibiy tuzilmaning nizomi.*

## 1.3. INDIKATOR

**Ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun tarkibiy tuzilma moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari bilan ta'minlangan hamda tarkibiy tuzilmaning ish rejaları ishlab chiqilgan\*\***

***Yordamchi savollar:***

- ❖ *Tarkibiy tuzilma faoliyati uchun zarur moddiy-texnik baza (bino, jihoz, AKT vositalari) yetarli darajada mavjudmi?*
- ❖ *Tarkibiy tuzilmaning ish rejaları qanday tartibda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi?*
- ❖ *Inson resurslarni boshqarish va ulardan samarali foydalanish jarayoni qanday monitoring qilinadi?*

***Asoslantiruvchi hujjat(lar):***

- ✓ *Tarkibiy tuzilmaning ish rejasi*
- ✓ *Moddiy-texnik, moliyaviy va inson resurslari haqida ma'lumot*

## 1.4. INDIKATOR

**Tarkibiy tuzilma tomonidan ta'lim dasturini mehnat bozori talablariga va texnologik o'zgarishlarga muvofiq muntazam takomillashtirish mexanizmlari yo'lga qo'yilgan\*\***

***Yordamchi savollar:***

- ❖ *Ta'lim dasturi mehnat bozori ehtiyojlari asosida muntazam ravishda tahlil qilinadimi?*

❖ *Ish beruvchilar va soha mutaxassislari ta'lim dasturini takomillashtirish jarayoniga jalb etilganmi?*

❖ *O'quv dasturiga kiritilgan o'zgartirishlar hujjatlashtirilgan va tasdiqlanganmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ *Ilmiy-pedagogik (metodik) kengash yoki kafedraning yillik ish rejasi. Bayonnoma va/yoki hisobotlar*

**2. MEZON: Ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 3 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi**

**Izoh:** *Ta'lim dasturini rivojlantirish va uning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan 3 yillik istiqbolli rejaning ishlab chiqilganligi, unda asosiy maqsadlar, rivojlanish yo'nalishlari hamda moliyaviy manbalar belgilanganligi o'rganiladi.*

**2.1. INDIKATOR**

**Istiqbolli reja kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tashkilotining maqsadi (missiya, strategiyasi) bilan mos holda ishlab chiqilgan va ta'lim tashkiloti rahbari tomonidan tasdiqlangan**

**Yordamchi savollar:**

❖ *Ta'lim tashkilotining istiqbolli rivojlanish rejasi, yillik ish rejasi va moliyaviy rejasi (smeta) qanday mezonlar asosida ishlab chiqilgan?*

❖ *Istiqbolli rejada ta'lim sifati ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan qanday ustuvor vazifalar ko'rsatilgan?*

❖ *Moliyaviy mablag'lardan foydalanish qanday tartibda monitoring qilinadi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ *Ta'lim dasturi bo'yicha 3 yillik istiqbolli rejasi (tasdiqlangan nusxasi)*

**2.2. INDIKATOR**

**Istiqbolli rejada ta'lim sifati, ta'lim dasturini rivojlantirish, kadrlar salohiyati, raqamlashtirish, xalqaro hamkorlik va moliyaviy barqarorlik yo'nalishlari qamrab olingan**

**Yordamchi savollar:**

❖ *Istiqbolli rejada ta'lim sifati, kadrlar salohiyati, infratuzilma, raqamlashtirish, xalqaro hamkorlik va moliyaviy barqarorlik yo'nalishlari qanday belgilangan?*

❖ *Istiqbolli rejada ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan aniq maqsad va chora-tadbirlar belgilanganmi?*

❖ *Ushbu yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirish muddati va mas'ullar ko'rsatilganmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ *Yo'nalishlar bo'yicha maqsadlar, vazifalar va kutilayotgan natijalar aks etgan strukturaviy jadvallar*

**2.3. INDIKATOR**

**Istiqbolli rejadagi har bir yo'nalish bo'yicha aniq maqsadlar, vazifalar va ushbu vazifalarning amalga oshirish mexanizmlari, moliyaviy manbalari, mas'ullar va bajarish muddati belgilangan**

**Yordamchi savollar:**

❖ *Istiqbolli rejaning har bir yo'nalishi bo'yicha maqsadlar va vazifalar qanday belgilangan?*

❖ *Ushbu yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirish muddati va mas'ullar ko'rsatilganmi?*

❖ *Maqsad va vazifalarning bajarilish qanday monitoringi olib boriladi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ *Har bir yo'nalish bo'yicha yo'l xaritalari*

✓ *Ijrosi uchun mas'ullar va muddatlari to'g'risidagi jadval*

✓ *Moddiy-texnik, moliyaviy va inson resurslari haqida ma'lumotlar*

✓ *Moliyaviy ta'minot manbalari va hisob-kitoblarga oid hujjatlar — smeta, moliyaviy prognoz va hisob-kitob materiallari*

**2.4. INDIKATOR**

**Istiqbolli rejada belgilangan vazifalarning bajarilishini doimiy monitoring qilish mexanizmlari mavjud va aniqlangan kamchiliklarni tuzatish choralari ko'riladi\*\***

**Yordamchi savollar:**

❖ *Istiqbolli rejadagi har bir vazifa uchun mas'ul ijrochilar qanday mezonlar asosida belgilangan?*

❖ *Ijro muddatlari doirasida rejadagi belgilangan vazifalarni bajarilishi bo'yicha monitoringi yuritilishi holati qanday olib boriladi?*

❖ *Belgilangan vazifalar ijrosi bo'yicha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan qanday chora-tadbirlar ishlab chiqilgan?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ Reja bajarilishi yuzasidan o'tkazilgan ichki monitoring natijalari (bayonnoma, tahlil yoki xulosa)
- ✓ Reja yangilanishi yoki takomillashtirilishi haqidagi qarorlar (kengash yoki ishchi guruh bayonnomasi).

### **3. MEZON: Ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani**

**Izoh:** Ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi, uning amalda ishlayotganligi hamda ushbu jarayonlarga pedagoglar, tinglovchilar, ish beruvchilar va boshqa manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlanganligi o'rganiladi.

#### **3.1. INDIKATOR**

**Ta'lim dasturini ichki monitoring qilish va sifatni ta'minlash tizimi yo'lga qo'yilgan va monitoring muntazam (yillik/yarim yillik) amalga oshiriladi**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ Ta'lim dasturini ichki monitoring qilish va sifatni ta'minlash tizimi qanday rasmiylashtirilgan?
- ❖ Monitoring bo'yicha baholash ko'rsatkichlari qanday mezonlar asosida ishlab chiqilgan?
- ❖ Ichki hujjatlar jamoatchilik uchun qanday shaklda e'lon qilingan?

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ Ichki sifatni ta'minlash bo'yicha tartib-qoidalar va standartlar
- ✓ Ichki sifatni ta'minlash bo'yicha tuzilma haqidagi buyruq va tarkibiy tuzilma sxemasi

#### **3.2. INDIKATOR**

**Pedagoglar, ish beruvchilar, buyurtmachilar, soha mutaxassislari va tinglovchilardan muntazam ravishda fikr-mulohazalar yig'ilib, tahlil qilinadi hamda ushbu tahlillar natijasiga ko'ra ta'lim dasturi takomillashtirilgan\*\***

**Yordamchi savollar:**

- ❖ Ta'lim dasturini muntazam monitoring qilish, tahlil qilish va qayta ko'rib chiqish tartibi qanday hujjatlar bilan belgilangan?
- ❖ Monitoring va tahlil jarayonida qanday ma'lumotlar yig'iladi, kimlar ishtirok etadi va natijalar qanday usullar orqali baholanadi?
- ❖ Tahlil natijalariga ko'ra ta'lim dasturiga qanday o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan?

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ Ta'lim dasturini monitoring qilish va qayta ko'rib chiqish tartibi (yo'riqnoma yoki nizom).
- ✓ Manfaatdor tomonlar fikri asosida ta'lim dasturini takomillashtirish bo'yicha tayyorlangan hujjatlar

**3.3. INDIKATOR**

**Takomillashtirilgan ta'lim dasturlarini ta'lim tashkilotining veb-sayti va (yoki) ijtimoiy tarmoqlarida ochiq e'lon qilingan\*\***

**Yordamchi savollar:**

- ❖ Ta'lim dasturini ishlab chiqish va takomillashtirish jarayonida manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalarini yig'ish uchun qanday mexanizmlar (so'rovnoma, muloqotlar, maslahat kengashlari va boshqalar) yo'lga qo'yilgan?
- ❖ Ta'lim dasturlari tashkilot rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarda ochiq e'lon qilinganmi?

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ Tasdiqlangan ta'lim dasturining ta'lim tashkilotining veb-sayti va (yoki) ijtimoiy tarmoqlarida ochiq e'lon qilinganini tasdiqlovchi hujjatlar

#### **4. MEZON: Mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi**

**Izoh:** Mehnat bozori hamda ta'lim ehtiyojlarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi, uning tashkiliy va uslubiy asoslari, monitoringning muntazamligi, ish beruvchilar va sohaviy tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi, shuningdek, olingan natijalardan ta'lim dasturlarini yangilash va tashkiliy boshqaruvni takomillashtirishda foydalanish amaliyoti o'rganiladi.

**4.1. INDIKATOR**

**Mehnat bozori va ta'lim sohasi ehtiyojlarini muntazam o'rganish, prognozlash va tahlil qilish tizimi joriy qilingan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ Mehnat bozori, ta'lim ehtiyojlari va ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalariga oid ma'lumotlarni yig'ish, tahlil va monitoring qilish tartibi qanday hujjatlar bilan belgilangan va jarayonning asosiy bosqichlari qanday?
- ❖ Mazkur ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishda tarkibiy tuzilmalar qanday vazifa va funksiyalarni bajaradi?

❖ *Yig'ilgan ma'lumotlar asosida ta'lim dasturlarini takomillashtirish, yangilash yoki qarorlar qabul qilish jarayoni qanday amalga oshiriladi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ *Mehnat bozori va sohaviy ehtiyojlarini o'rganish bo'yicha tayyorlangan hujjatlar*

✓ *Monitoring va tahlil ishlarining amalga oshirilganligini tasdiqlovchi ichki hisobotlar*

**4.2. INDIKATOR**

**Monitoring jarayoniga manfaatdor tomonlarning tizimli ishtiroki ta'minlangan\*\***

**Yordamchi savollar:**

❖ *Monitoring jarayoniga manfaatdor tomonlar (tinglovchilar, ish beruvchilar, bitiruvchilar, professor-o'qituvchilar) jalb etiladimi?*

❖ *Manfaatdor tomonlarning fikr va takliflari muntazam ravishda yig'iladimi (so'rovnoma, uchrashuv, muhokama orqali)?*

❖ *Manfaatdor tomonlardan olingan takliflar tizimli ravishda monitoringi qanday olib boriladi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ *Mehnat bozori monitoringi va tahlili bo'yicha hisobotlar (yarim yillik yoki yillik).*

**4.3. INDIKATOR**

**Monitoring natijalari tahlil qilinib, ta'lim dasturlarini yangilash, mazmuni mehnat bozori talablari bilan moslashtirish bo'yicha aniq choralar belgilangan va amalga oshirilgan\*\***

**Yordamchi savollar:**

❖ *Yig'ilgan ma'lumotlar (mehnat bozori, ta'lim ehtiyojlari, ilmiy-tadqiqot tendensiyalari) ta'lim dasturini rejalashtirish va ishlab chiqish jarayoniga qanday tartibda integratsiya qilingan?*

❖ *Mazkur ma'lumotlar asosida ta'lim dasturining maqsadlari, mazmuni va kompetensiyalarida qanday o'zgarish yoki yangilanishlar amalga oshirilgan?*

❖ *Yig'ilgan ma'lumotlardan foydalanish samaradorligi qanday baholanadi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ *Monitoring natijalari asosida ta'lim dasturini takomillashtirish bo'yicha hujjatlar*

✓ *Tinglovchilarni mehnat bozori imkoniyatlari bilan tanishtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hisoboti*

#### 4.4. INDIKATOR

**Monitoring natijalari asosida tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishlari takomillashtirilgan\*\***

**Yordamchi savollar:**

❖ *Tahlil va monitoring natijalari qanday tartibda ko'rib chiqiladi va ta'lim sifatini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar belgilanadi?*

❖ *Belgilangan chora-tadbirlar qanday bosqichlarda amalga oshiriladi va ularning bajarilishi uchun kimlar mas'ul etib belgilangan?*

❖ *Monitoring natijalari asosida tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash maqsadida qanday hujjatlar ishlab chiqilgan?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ *Tahlil va monitoring natijalari hisoboti*

✓ *Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishlari takomillashtirilganligi bo'yicha hujjatlar*

## II-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

**Izoh:** *Ta'lim dasturi soha mutaxassislari, pedagoglar va ish beruvchilar bilan birga ishlab chiqilganligi, Milliy malakalar ramkasiga mosligi, davomiyligi, andragogik yondashuvlarga va amaliy vaziyatlarga asoslanganligi, shuningdek, dastur muntazam monitoring qilinishi va natijalar asosida yangilanishi o'rganiladi.*

**5. MEZON:** **Manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim talabi va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi**

**Izoh:** *Manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilganligi, unda ta'lim dasturining maqsadi va kutilgan natijalarining aniq belgilanganligi, shuningdek, dastur mazmunining mehnat bozori ehtiyojlari, davlat ta'lim talabi hamda Milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi o'rganiladi.*

#### 5.1. INDIKATOR

**Ishchi guruh tarkibiga ish beruvchilar, soha mutaxassislari, pedagoglar va zarur hollarda tinglovchilar jalb etilgan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Tinglovchilar o'rtasida ta'lim dasturlari bo'yicha so'rovnoma, intervyular va muhokamalar o'tkazish qanday tartibda o'tkaziladi?*
- ❖ *So'rovnoma va muhokamalarda qaysi jihatlariga e'tibor beriladi va ma'lumotlar yig'iladi?*
- ❖ *Olingan takliflar, fikrlar ta'lim dasturini takomillashtirish bo'yicha qanday tartibda rasmiylashtiriladi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Manfaatdor tomonlar ishtirokini tasdiqlovchi hujjatlar (tasdiqlangan ishchi guruh ro'yxati, buyruq va xatlar)*

**5.2. INDIKATOR**

**Ta'lim dasturining mazmuni davlat ta'lim talabi, milliy malakalar ramkasi va tegishli kasbiy standartlar (malaka talablari) hamda mehnat bozori tahliliga muvofiq ishlab chiqilgan\***

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Ta'lim dasturining mazmuni davlat ta'lim talabi, milliy malakalar ramkasi va tegishli kasbiy standartlar (malaka talablari)ga mos ravishda ishlab chiqilganmi?*
- ❖ *Ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari mehnat bozori talablariga muvofiqligi tahlil qilinganmi?*
- ❖ *Ta'lim dasturlarini takomillashtirish va yangilash bo'yicha qanday takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Ta'lim dasturi (malaka talablari, o'quv reja, fan (modul) dasturlari)*

**5.3. INDIKATOR**

**Tegishli ta'lim dasturlari manfaatdor tomonlar bilan kelishilgan holda tasdiqlangan, ta'lim dasturlarida uning maqsadi va o'qitish natijalari (kompetensiyalar), bilim ko'nikma va malakaga oid aniq talablar belgilangan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Tegishli ta'lim dasturlari bo'yicha manfaatdor tomonlar bilan qanday tartibda kelishilgan?*
- ❖ *ta'lim dasturlarida uning maqsadi va o'qitish natijalari (kompetensiyalar), bilim ko'nikma va malakaga oid aniq talablar belgilanganmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Ta'lim dasturi (malaka talablari, o'quv reja, fan (modul) dasturlari)*

#### 5.4. INDIKATOR

**Ta'lim dasturini ishlab chiqish va qayta ko'rib chiqish bo'yicha qabul qilingan qarorlar, muhokama bayonnomalari hujjatlashtirilgan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Ta'lim dasturini ishlab chiqish va qayta ko'rib chiqish bo'yicha manfaatdor tomonlar bilan qanday tartibda ko'rib chiqilgan?*
- ❖ *Ta'lim dasturi bo'yicha qabul qilingan qarorlar, muhokama va bayonnomalar qanday rasmiylashtirilgan?*
- ❖ *Qabul qilingan qarorlar, muhokama va bayonnomalar ijrosi qanday monitoring qilinadi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Ilmiy-pedagogik (metodik) kengash bayon(lar)*

#### 5.5. INDIKATOR

**Ta'lim dasturi haqidagi asosiy axborot (maqsad, o'qitish natijalari, qabul talablari, o'qish shartlari) jamoatchilik va tinglovchilar uchun ochiq va muntazam yangilanib boriladi\*\***

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Ta'lim dasturi haqidagi asosiy axborotlar qanday tartibda rasmiy veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan?*
- ❖ *Rasmiy veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan ta'lim dasturlari reyestri yuritilganmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Ta'lim dasturi bo'yicha ochiq axborot resurslari va e'lonlar reyestri*

**6. MEZON: Ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilgani** 

***Izoh:** Ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimida belgilangan ustuvor yo'nalishlar asosida hamda xalqaro standartlar, ilg'or xorijiy tajriba va zamonaviy kompetensiyalar talablarini inobatga olgan holda ishlab chiqilganligi o'rganiladi.*

#### 6.1. INDIKATOR

**Ta'lim dasturining mazmuni milliy ta'lim tizimi ustuvor yo'nalishlari (milliy malaka ramkasi) va barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiqligi bo'yicha tahlil qilingan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Ta'lim dasturini ishlab chiqishda milliy ta'lim tizimi ustuvor yo'nalishlari (milliy malaka ramkasi) inobatga olinganmi?*
- ❖ *Ta'lim dasturini ishlab chiqishda barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiqligi bo'yicha tahlil qilinganmi?*
- ❖ *Tasdiqlangan ta'lim dasturi jamoatchilik va manfaatdor tomonlar uchun ochiq tarzda e'lon qilinadimi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Ta'lim dasturining milliy rivojlanish strategiyalari va sohaviy davlat dasturlariga muvofiqligi to'g'risidagi tahliliy ma'lumot*

**6.2. INDIKATOR**

**Ta'lim dasturi ilg'or xorijiy tajribalar (yoki xalqaro standartlar) asosida ishlab chiqilgan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Ta'lim dasturini ishlab chiqishda qaysi ilg'or xorijiy tajribalar o'rganilgan?*
- ❖ *Ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari xalqaro standartlarga moslashtirish darajasi qanday asoslangan?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Xorijiy tajriba (xalqaro standart)lar asosida ishlab chiqilganligi tahlili*

**6.3. INDIKATOR**

**Ta'lim dasturining xorijiy ilg'or tajribalar asosida ishlab chiqilganligi bo'yicha xorijiy va (yoki) mahalliy ekspertlar tomonidan berilgan rasmiy xulosa mavjud**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Xorijiy ilg'or tajribalar asosida ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari uchun xulosa olishda xorijiy va (yoki) mahalliy ekspertlar jalb etilganmi?*
- ❖ *Ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari uchun xorijiy va (yoki) mahalliy ekspertlar tomonidan berilgan xulosalar mavjudligi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Xorijiy ekspertlar yoki tashkilot tomonidan berilgan rasmiy xulosalar (taqrizlar)*

**7. MEZON: Ta'lim dasturining davomiyligi, modullarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani**

**Izoh:** Ta'lim dasturining davomiyligi asoslangan holda belgilanganligi, modullar o'rtasidagi uzviylik va mantiqiy ketma-ketlik ta'minlanganligi, shuningdek, ta'lim jarayonining uzluksiz tashkil etilganligi o'rganiladi.

### 7.1. INDIKATOR

**Ta'lim dasturining davomiyligi (umumiy kreditlar (soatlar), o'qish muddati) ushbu dasturning maqsadlari va kutilgan o'quv natijalariga mos ravishda belgilangan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ Ta'lim dasturlarining davomiyligi (malaka talablari, o'quv reja, fan (modul) ushbu dasturlarning maqsadlariga mos ravishda ishlab chiqilganmi?
- ❖ Ta'lim dasturlarining davomiyligi (umumiy kreditlar (soatlar), o'qish muddati) ushbu dasturlarda kutilgan o'quv natijalariga mos ravishda belgilanganmi?
- ❖ Ta'lim dasturlarida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha qanday chora-tadbirlar ishlab chiqilgan?

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ Ta'lim dasturi (malaka talablari, o'quv reja, fan (modul) dasturlari).

### 7.2. INDIKATOR

**Ta'lim dasturida fanlar (modullar) o'rtasida mantiqiy izchillik va uzviylik ta'minlangan hamda fanlar (modullar) ta'lim dasturi yakunida kutilayotgan o'quv natijalarga erishishga yo'naltirilgan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ Ta'lim dasturida fanlar (modullar) o'rtasida mantiqiy izchillik va uzviylikni ta'minlash qanday mezonlar asosida amalga oshirilgan?
- ❖ Fanlar (modullar) ta'lim dasturi yakunida kutilayotgan o'quv natijalarga erishganligi qanday baholanadi?

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ Ta'lim dasturi (malaka talablari, o'quv reja, fan (modul) dasturlari).

### 7.3. INDIKATOR

**Fan (modul)lardagi amaliy va nazariy mashg'ulotlar o'rtasida o'zaro integratsiya ta'minlangan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ Fan (modul)lardagi amaliy va nazariy mashg'ulotlar o'rtasida o'zaro integratsiyasi qanday ta'minlangan?

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ O'quv reja, fan (modul) dasturlari

**7.4. INDIKATOR**

**Mashg'ulot turlari (nazariy, amaliy va boshqalar) ta'lim dasturi mazmuniga muvofiq ravishda belgilangan**

**Yordamchi savollar:**

❖ *Ta'lim dasturi (nazariy, amaliy va boshqalar) mashg'ulot turlari mazmuniga muvofiq ravishda ishlab chiqilganmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Ta'lim dasturi (malaka talablari, o'quv reja, fan (modul) dasturlari).*

## **8. MEZON: Ta'lim mazmunining zamonaviy andragogik yondashuvlarga mosligi, modullar muammoli keyslar asosida shakllantirilgani**

**Izoh:** *Ta'lim mazmunining zamonaviy andragogik yondashuvlar asosida ishlab chiqilganligi, modullar kattalar ta'limi xususiyatlarini inobatga olgan holda muammoli keyslar, amaliy vazifalar va real ish jarayonlariga asoslanib shakllantirilganligi o'rganiladi.*

**8.1. INDIKATOR**

**Ta'lim mazmuni zamonaviy andragogik prinsiplar (katta yoshdagi tinglovchilarning ehtiyojlari, tajribaga tayangan o'qitish, o'z-o'zini o'rganishga yo'naltirish, motivatsion yondashuv va boshqalar) asosida ishlab chiqilgan**

**Yordamchi savollar:**

❖ *Ta'lim mazmuni zamonaviy andragogik prinsiplar ya'ni katta yoshdagi tinglovchilarning ehtiyojlari, tajribaga tayangan o'qitish, o'z-o'zini o'rganishga yo'naltirish va boshqa yondashuvlar uchun moslanganmi?*

❖ *Ta'lim mazmuni bo'yicha manfaatdor tomonlar va tinglovchilar fikr-mulohazalari o'rganilganmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Ta'lim dasturi (malaka talablari, o'quv reja, fan (modul) dasturlari).*

**8.2. INDIKATOR**

**Fan (modul)lar kompetensiyaga yo'naltirilgan, amaliy faoliyatga asoslangan va real ish muhitidagi muammoli vaziyatlar bo'yicha ishlab chiqilgan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Fan (modul)lar mazmuni aniq kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilganmi?*
- ❖ *Modul mazmuni amaliy faoliyatga asoslangan holda ishlab chiqilganmi?*
- ❖ *Nazariy bilimlar amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirilganmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Fan (modul) dasturlari*

**8.3. INDIKATOR**

**Ta'lim jarayonida muammoli keyslar, real sektorlardan misollar, ishlab chiqarishdan olingan vaziyatli topshiriqlardan tizimli ravishda foydalaniladi\*\***

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Ta'lim jarayonida muammoli keyslar muntazam va tizimli ravishda shakllantiriladimi?*
- ❖ *Vaziyatli topshiriqlar aniq kasbiy muammolarni hal qilishga yo'naltirilganmi?*
- ❖ *Ishlab chiqilgan muammoli keyslar ro'yxati qanday tartibda muhokama qilingan va tasdiqlangan?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *O'quv uslubiy majmualar va (yoki) qo'llanmalar*

**8.4. INDIKATOR**

**Muammoli keyslarni qo'llash samaradorligi monitoringi amalga oshiriladi\*\***

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Muammoli keyslarni qo'llanishi va natijalari natijalari bo'yicha monitoring muntazam ravishda olib boriladimi?*
- ❖ *Monitoringni olib borish uchun aniq mezon va ko'rsatkichlar ishlab chiqilganmi?*
- ❖ *Monitoring natijalari asosida keyslar mazmuniga qanday tartibda o'zgartirishlar kiritiladi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Monitoring va tahlil rejasi hamda reja ijrosi bo'yicha tahliliy material yoki hisobotlar*
- ✓ *Dars tahlili hujjatlari*

## **9. MEZON: Amaldagi ta'lim dasturlarining tizimli ravishda monitoringi yuritilgani hamda uning samaradorligini oshirish va takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilgani !**

***Izoh:** Amaldagi ta'lim dasturlarining tizimli ravishda monitoringi yuritilganligi, monitoring natijalari asosida ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish hamda dasturlarni takomillashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarning amalga oshirilganligi o'rganiladi.*

### **9.1. INDIKATOR**

**Tinglovchilarni ta'lim dasturlari fan (modul)lari bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari doimiy ravishda monitoring qilingan\*\***

***Yordamchi savollar:***

- ❖ *Tinglovchilarning fan (modul)lar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari qanday tartibda tahlil qilinadimi?*
- ❖ *O'zlashtirish ko'rsatkichlari qoniqarsiz darajasi aniqlanganda qanday choralar ko'riladi?*
- ❖ *Monitoring natijalari ta'lim tashkiloti kengashida muhokama qilinadimi?*

***Asoslantiruvchi hujjat(lar):***

✓ *Ta'lim dasturlari samaradorligini baholash mezonlari va usullarini belgilovchi ichki me'yoriy hujjatlar*

### **9.2. INDIKATOR**

**Monitoring natijasidan kelib chiqib, ta'lim dasturlari fan (modul)larini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan\*\***

***Yordamchi savollar:***

- ❖ *Ta'lim dasturi bo'yicha monitoring va tahlil jarayonlarini belgilovchi ichki hujjat(lar) mavjudmi?*
- ❖ *Monitoring va tahlil qanday davriylikda va kim tomonidan amalga oshiriladi?*
- ❖ *Tahlil natijalari asosida aniqlangan kamchiliklar va takomillashtirish imkoniyatlari bo'yicha chora-tadbirlar belgilanadimi?*

***Asoslantiruvchi hujjat(lar):***

✓ *Monitoring va tahlil rejasi hamda reja ijrosi bo'yicha tahliliy material yoki hisobotlar*

### **9.3. INDIKATOR**

**Monitoring natijalari asosida zaruratga ko'ra ta'lim dasturi, shu jumladan fanlarning (modullarning) mazmuni, o'qitish usullariga zarur o'zgartishlar kiritilgan\*\***

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Monitoring natijalari asosida ta'lim dasturiga o'zgartirishlar kiritish qanday tartibda amalga oshiriladi?*
- ❖ *Ta'lim dasturiga o'zgartirishlar kiritilishida manfaatdor tomonlar bilan muhokama qilinadimi?*
- ❖ *Ularning fikr-mulohazalari ta'lim dasturini takomillashtirish jarayonida inobatga olinadimi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha hujjatlar.*

### **III-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi**

**Izoh:** *Ta'lim tashkilotida ta'lim dasturlarining maqsad va vazifalariga muvofiq ishchi o'quv reja va dasturlarni ishlab chiqish, o'quv jarayonini belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ta'lim sifati va baholash jarayonlarining shaffofligini ta'minlash hamda akademik halollik tamoyillariga amal qilishni qamrab olgan tizimli faoliyat baholanadi*

**10. MEZON:** *O'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani va malaka oshirishning muqobil shakllarining yo'lga qo'yilgani* 🚫

**Izoh:** *O'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilganligi, shuningdek, malaka oshirishning muqobil shakllari (masofaviy, gibrid, modulli va boshqa formatlar) yo'lga qo'yilganligi hamda ularning amalda qo'llanilishi o'rganiladi.*

#### **10.1. INDIKATOR**

**Davlat ta'lim talablari (malaka talablari) asosida o'quv reja va o'quv dasturlari (ishchi o'quv reja va dasturlar) ishlab chiqilgan va tasdiqlangan\***

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *O'quv reja va dasturlarni ishlab chiqish jarayonida ish beruvchilar, tinglovchilar va soha mutaxassisleri qanday jalb qilindi?*
- ❖ *Ularning bildirgan takliflari qanday yig'ildi, tahlil qilindi va rasmiylashtirildi?*

❖ *Takliflar asosida o'quv reja yoki dasturlarga o'zgartirishlar kiritilgan va qanday asoslangan?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Davlat ta'lim talablari*
- ✓ *O'quv reja, fan (modul) dasturlari*

## 10.2. INDIKATOR

**Malaka oshirishning muqobil shakllari (masofaviy, aralash) bo'yicha metodik materiallar ishlab chiqilgan**

**Yordamchi savollar:**

❖ *Malaka oshirishning muqobil shakllari (masofaviy, aralash) bo'yicha metodik materiallar ishlab chiqilganmi?*

❖ *Malaka oshirishning muqobil shakllari (masofaviy, aralash) qanday hujjatlar asosida joriy qilingan?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Malaka oshirishning muqobil shakllarini joriy qilinganligini asoslovchi hujjatlar*
- ✓ *Masofaviy va aralash (gibrid) malaka oshirish shakllari uchun ishlab chiqilgan metodik materiallar*

## 10.3. INDIKATOR

**O'quv mashg'ulotlari o'quv reja va dasturlar hamda dars jadvaliga muvofiq tashkil etilgan**

**Yordamchi savollar:**

❖ *O'quv mashg'ulotlari o'quv reja va dasturlar hamda dars jadvaliga muvofiq tashkil etilganmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *O'quv reja, fan (modul) dasturlari;*
- ✓ *Dars jadvallari*

## 10.4. INDIKATOR

**O'quv natijalarini baholash tizimi joriy etilgan bo'lib, baholash vositalari o'quv natijalarini aniqlashga xizmat qiladi va muntazam ravishda tahlil qilinadi\*\***

**Yordamchi savollar:**

❖ *Ta'lim tashkilotning o'quv natijalarini baholash bo'yicha tartib ishlab chiqilganmi?*

- ❖ *O'quv natijalarini baholash qanday vositalar orqali amalga oshiriladi?*
- ❖ *Ta'lim tashkilotning o'quv natijalarini baholash bo'yicha monitoringi qanday tartibda yuritiladi va nazorat qilinadi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *O'quv natijalarini baholash tizimini joriy qilish bo'yicha hujjatlar*
- ✓ *Ta'lim dasturi bo'yicha ishlab chiqilgan baholash vositalari*

**10.5. INDIKATOR**

**O'quv jarayonining sifatini ichki monitoring qilish mexanizmi mavjud, monitoring natijalari asosida o'quv jarayoni takomillashtiriladi\*\***

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *O'quv jarayonining sifatini ichki monitoring qilish bo'yicha qanday mexanizmlar ishlab chiqilgan?*
- ❖ *O'quv jarayonining sifatini ichki monitoringi bo'yicha qanday muammolar aniqlangan?*
- ❖ *Aniqlangan muammolarni bartaraf qilish va takomillashtirish bo'yicha qanday chora-tadbirlar ishlab chiqilgan?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Ichki monitoring natijalari bo'yicha tahliliy hisobotlari*
- ✓ *Monitoring natijalari asosida qabul qilingan takomillashtirish chora-tadbirlari rejasi*

**11. MEZON: O'quv jarayonining to'g'ri tashkil etilgani, uning doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani** 

*Izoh: O'quv jarayonining belgilangan talablar asosida to'g'ri tashkil etilganligi, uning doimiy ravishda baholab borilishi hamda aniqlangan natijalar asosida takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi o'rganiladi.*

**11.1. INDIKATOR**

**O'quv reja asosida dars jadvali ishlab chiqilgan**

**Yordamchi savollar:**

*O'quv reja asosida dars jadvali ishlab chiqilganmi va tasdiqlanganmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Tasdiqlangan o'quv reja*
- ❖ *O'quv reja asosida ishlab chiqilgan dars jadvali*

**11.2. INDIKATOR**

**O'quv mashg'ulotlari dars jadvaliga muvofiq holda, uzluksiz va tizimli ravishda tashkil etilgan\*\***

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *O'quv mashg'ulotlari dars jadvaliga muvofiq ishlab chiqilganmi?*
- ❖ *O'quv mashg'ulotlari uzluksiz va tizimli ravishda tashkil etilganmi?*
- ❖ *O'quv mashg'ulotlari dars jadvaliga muvofiq olib borilganligi qanday rasmiylashtiriladi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Tasdiqlangan dars jadvali*
- ✓ *Dars mashg'ulotlari o'tkazilganligini tasdiqlovchi jurnallar (elektron yoki qog'oz shaklda)*
- ✓ *O'quv mashg'ulotlari jarayoni bo'yicha ichki nazorat (monitoring) dalolatnomalari*

### **11.3. INDIKATOR**

**O'quv jarayoni sifatini baholash, tahlil qilish va takomillashtirish ishlari amalga oshirilgan\*\***

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *O'quv jarayoni sifatini baholash va tahlil qilish tartibi qanday hujjatlar orqali belgilangan?*
- ❖ *Baholash va tahlil jarayoni qaysi ko'rsatkichlar va mezonlar asosida amalga oshiriladi?*
- ❖ *Tahlil natijalari asosida o'quv jarayonini takomillashtirish uchun qanday chora-tadbirlar ko'riladi va ular qanday hujjatlarda aks ettiriladi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *O'quv jarayoni sifatini baholash bo'yicha ichki monitoring hisobotlari*
- ✓ *O'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha hujjatlar*

**12. MEZON: Amaldagi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarning qo'llanilgani va tegishli samaradorlikka erishilgani**

*Izoh: Amaldagi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarning qo'llanilganligi, zamonaviy o'qitish usullari va innovatsion yondashuvlar joriy etilganligi hamda ular orqali belgilangan o'quv natijalariga erishish samaradorligi o'rganiladi.*

### **12.1. INDIKATOR**

**Dars jarayonlarida ilg'or pedagogik yondashuvlar muntazam qo'llaniladi\*\***

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Dars jarayonlarida interaktiv va faol o'qitish metodlari muntazam qo'llaniladimi?*
- ❖ *Ilg'or pedagogik yondashuvlar natijalari monitoring va tahlil qilinadimi?*
- ❖ *Dars jarayonlarida ilg'or pedagogik yondashuvlardan foydalanish bo'yicha o'quv uslubiy majmualar yoki qo'llanmalar mavjudmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Dars tahlillari hujjatlari*
- ✓ *O'quv uslubiy majmualar yoki qo'llanmalar*

## 12.2. INDIKATOR

**Ilg'or pedagogik yondashuvlar fanlar (modullar) mazmunini chuqur o'zlashtirish va ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga samarali erishishga qaratiladi\*\***

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Ilg'or pedagogik yondashuvlar fan yoki modul mazmunini chuqur o'zlashtirishga xizmat qiladimi?*
- ❖ *Darslarda qo'llanilayotgan metodlar o'quv natijalarini (kompetensiyalarni) shakllantirishga qaratilganmi?*
- ❖ *Ilg'or pedagogik yondashuvlar natijalari muntazam monitoring qilinadimi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Dars tahlillari hujjatlari*
- ✓ *O'quv uslubiy majmualar yoki qo'llanmalar*

## 12.3. INDIKATOR

**Ilg'or pedagogik yondashuvlar tinglovchilarda mustaqil ta'lim olish, tahliliy, tanqidiy va ijodiy fikrlash hamda hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltiriladi\*\***

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Dars jarayonida tinglovchilarni mustaqil o'rganishga yo'naltiruvchi metodlar mavjudmi?*
- ❖ *O'qituvchilar tomonidan qo'llaniladigan metodlar tinglovchilarning yuqoridagi ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga qaratilganmi?*
- ❖ *Guruh ishlari, loyihalar yoki hamkorlik va jamoaviy ishlash ko'nikmalari rivojlantiriladimi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Interfaol mashg'ulotlar (keys, loyiha, guruhli ish) materiallari*
- ✓ *O'quv uslubiy majmualar yoki qo'llanmalar*

**12.4. INDIKATOR**

**Ilg'or pedagogik yondashuvlar samaradorligi bo'yicha muntazam monitoring va tahlil olib boriladi\*\***

**Yordamchi savollar:**

❖ *Ilg'or pedagogik yondashuvlar samaradorligini aniqlash bo'yicha doimiy monitoring va tahlillar olib boriladimi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Monitoring va dars tahlillari hujjatlari*

**12.5. INDIKATOR**

**Monitoring va tahlil natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida ilg'or pedagogik yondashuvlar bo'yicha pedagoglarning salohiyati muntazam rivojlantiriladi\*\***

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Monitoring va tahlil natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan qanday ishlar amalga oshirilgan?*
- ❖ *Monitoring va tahlil natijalari asosida pedagoglarning salohiyatini oshirish maqsadida qanday tadbirlar o'tkazilgan?*
- ❖ *Innovatsion va ilg'or pedagogik yondashuvlar bo'yicha o'qituvchilar malakasini oshirish dasturlari ishlab chiqilganmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Ilg'or pedagogik texnologiyalar bo'yicha o'quv-seminarlar materiallari*
- ✓ *Pedagoglar kasbiy rivojlanishi bo'yicha hisobotlar*

**Izoh:** *Tinglovchilarning kirish va chiqish testlari natijalarini baholash, ular asosida tahlil olib borish hamda baholash jarayonlari bo'yicha tinglovchilardan fikr-mulohazalar olish imkoniyatining mavjudligi o'rganiladi.*

### **13. MEZON: Tinglovchilarning kirish va chiqish testlari, baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi**

**13.1. INDIKATOR**

**Test savollari o'quv dasturiga mos ravishda ishlab chiqilgan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Test savollari o'quv dasturiga mos ravishda ishlab chiqilganmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Fanlar (modullar) bo'yicha tasdiqlangan o'quv dasturlari*
- ✓ *O'quv uslubiy majmualar yoki qo'llanmalar*
- ✓ *O'quv natijalariga mos test savollari banki*

**13.2. INDIKATOR**

**Tinglovchilarning baholash natijalari va testlar bo'yicha fikr-mulohazalarini anonim so'rovnomalar hamda LMS/onlayn shakllar orqali muntazam ravishda yig'ish va tahlil qilish tizimi yo'lga qo'yilgan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Tinglovchilarning baholash natijalari yuzasidan fikr-mulohazalari, taklif va shikoyatlarini yig'ish va tahlil qilish tartibi qanday ishlab chiqilgan?*
- ❖ *Fikr-mulohazalarni ko'rib chiqish va tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilganmi?*
- ❖ *Tinglovchilar fikr-mulohazalari va anonim so'rovnomalar asosida baholash jarayonini takomillashtirilganmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Anonim so'rovnomalar shakllari (onlayn/LMS)*
- ✓ *Fikr-mulohazalar natijalari bo'yicha tahlil hisobotlari*

**13.3. INDIKATOR**

**Kirish va chiqish testlari natijalari fanlar (modullar) kesimida tahlil qilinib, tinglovchilarning bilim va ko'nikmalardagi o'zgarishi aniqlangan\*\***

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Kirish va chiqish testlari har bir fan yoki modul bo'yicha tashkil etilganmi?*
- ❖ *Kirish va chiqish testlari natijalari qanday tartibda solishtirma tahlillari amalga oshirilgan?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Kirish va (yoki) chiqish testlari natijalari jadvallari*
- ✓ *Fanlar (modullar) kesimida tahlil hisobotlari*

**13.4. INDIKATOR**

**Tinglovchilarning fikr-mulohazalari va test natijalari ilmiy-metodik kengashlar yoki kafedra majlislarida muhokama qilinadi\*\***

**Yordamchi savollar:**

❖ *Tinglovchilarning fikr-mulohazalari va test natijalari ilmiy-metodik kengashlar yoki kafedra majlislarida muhokama qilinganmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ *Ilmiy-metodik kengash yoki kafedra majlisi bayonnomalari*

**14. MEZON: Ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi**

**Izoh:** *Ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilanganligi, ularga rioya etilishini ta'minlash mexanizmlarining mavjudligi hamda akademik halollikka zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali nazorat va profilaktika tizimining yo'lga qo'yilganligi o'rganiladi.*

**14.1. INDIKATOR**

**Ta'lim tashkilotida akademik halollik, etika va kasbiy mas'uliyatga oid tartib (qoidalar) va yo'riqnomalar mavjud**

**Yordamchi savollar:**

❖ *Ta'lim tashkilotida akademik halollik, etika va kasbiy mas'uliyatga oid qanday tartib (qoidalar) va (yoki) yo'riqnomalar mavjud va ular qaysi hujjatlar bilan tasdiqlangan?*

❖ *Mazkur tartib va yo'riqnomalar professor-o'qituvchilar, xodimlar va tinglovchilar uchun qanday tartibda joriy etilgan?*

❖ *Akademik halollik, etika va kasbiy mas'uliyat qoidalariga rioya etilishini ta'minlash va nazorat qilish qanday yuritiladi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ *Akademik halollik qoidalari to'g'risidagi ichki hujjatlar*

**14.2. INDIKATOR**

**Plagiat va boshqa akademik halollik qoidalarini buzilishini oldini olish, aniqlash va bartaraf etish bo'yicha antiplagiat tizimi va tashkiliy choralar joriy etiladi\*\***

**Yordamchi savollar:**

❖ *Akademik halollik va plagiatni oldini olish bo'yicha qanday tartib va yo'riqnomalar ishlab chiqilgan?*

❖ *Tinglovchilar va o'qituvchilar akademik halollik qoidalari bo'yicha tushuntirishlar olib borilganmi?*

❖ *Plagiat holatlari aniqlanganda ularni bartaraf etish bo'yicha qanday chora-tadbirlar ishlab chiqilgan?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ *Anti-plagiat tizimi bo'yicha rasmiy joriy etilgan tartib (yo'riqnoma) yoki anti-plagiat dasturidan o'tkazilgan tekshiruv hisobotlari*

**14.3. INDIKATOR**

**Akademik halollik qoidalarini buzish holatlarini ko'rib chiqish va javobgarlik choralari belgilash bo'yicha shaffof tartib mavjud\*\***

**Yordamchi savollar:**

❖ *Akademik halollik qoidalarini buzish holatlarini ko'rib chiqish uchun qanday shaffof tartib va qoidalar belgilangan?*

❖ *Qoidabuzarlik holatlarini ko'rib chiqish va javobgarlik choralari belgilashda qaysi organlar (komissiya, kengash) ishtirok etadi va ularning vakolatlari qanday aniqlangan?*

❖ *Qabul qilingan qarorlar bo'yicha manfaatdor tomonlarga axborot yetkazish hamda qarorlar ijrosini ta'minlash qanday mexanizmlar orqali amalga oshiriladi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ *Akademik halollik qoidalari to'g'risidagi ichki hujjatlar*

**IV-bob. Tinglovchilar faoliyati yo'nalishi**

**Izoh:** *Tinglovchilarni qabul qilish qonunchilik talablari asosida samarali tashkil etilishi, qabul parametrlarining ta'lim tashkiloti resurslari va imkoniyatlariga mosligi o'rganiladi va faoliyati baholanadi.*

**15. MEZON: Ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani**

**Izoh:** *Ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablarining aniq belgilanganligi, o'qishga qabul qilish jarayonining ochiq va shaffof tarzda tashkil etilganligi hamda belgilangan tartibga rioya etilganligi o'rganiladi.*

**15.1. INDIKATOR**

**Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga tinglovchilar kontingentini shakllantirish mexanizmi mavjud**

**Yordamchi savollar:**

❖ *Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari uchun tinglovchilar kontingentini shakllantirish mexanizmi mavjudmi?*

❖ *Tinglovchilar kontingentini shakllantirish va qabul qilishda qanday hujjatlar yuritiladi?*

❖ *Kurslarga qabul qilish bo'yicha elektron yoki avtomatlashtirilgan tizim mavjudmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Tinglovchilar kontingentini shakllantirish to'g'risidagi hujjatlar*
- ✓ *Buyurtmachilar (tashkilotlar) bilan kelishuvlar yoki ehtiyojlar ro'yxati*

**15.2. INDIKATOR**

**Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga tinglovchilarni qabul qilish tartibi tasdiqlangan**

**Yordamchi savollar:**

❖ *Qabul qilish mezonlari va talablari qanday hujjatlar bilan belgilangan va ular qaysi platformalar orqali e'lon qilinadi?*

❖ *Barcha tinglovchilar va manfaatdor tomonlar uchun qabul mezonlari va talablariga rioya qilinishini ta'minlash tartibi qanday amalga oshiriladi?*

❖ *Qabul mezonlari va talablari bo'yicha tushunmovchilik yoki shikoyat yuzaga kelganda qanday mexanizm mavjud?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Tinglovchilarni qabul qilish tartibi to'g'risidagi hujjatlar*
- ✓ *Ta'lim dasturi uchun belgilangan qabul mezonlari va talablari*

**15.3. INDIKATOR**

**Qabul jarayonlari amaldagi qonunchilikka muvofiq ravishda tashkil etilgan\*\***

**Yordamchi savollar:**

❖ *Kursga qabul qilish tartibi, qabul mezonlari, baholash usullari va qabul komissiyasining faoliyat ko'rsatish tartibi qanday normativ-huquqiy va ichki hujjatlar bilan belgilangan?*

❖ *Mazkur qabul tartibi va mezonlari talabgorlar uchun ochiq, shaffof va tushunarli bo'lishi qanday ta'minlangan?*

❖ *Qabul jarayonining belgilangan tartib, mezon va baholash usullariga muvofiqligi qanday monitoringi yuritiladi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ *Qabul hujjatlari amaldagi qabul jarayonlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar*

**15.4. INDIKATOR**

**Qabul jarayonlari hujjatlashtirilgan, tegishli buyruqlar qabul qilingan\*\*****Yordamchi savollar:**

- ❖ *Qabul jarayoni qanday tartibda rasmiylashtirilgan va tegishli buyruqlar qabul qilingan?*
- ❖ *Qabul jarayonini takomillashtirish bo'yicha qanday aniq chora-tadbirlar ko'rilgan?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Tinglovchilarni kurslarga qabul qilish to'g'risidagi buyruqlar*
- ✓ *Qabul qilingan tinglovchilar reyestri*

**15.5. INDIKATOR**


**Malaka oshirish kurslariga buyurtma berish hamda tinglovchilarni qabul qilish jarayonlari raqamlashtirilgan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Malaka oshirish kurslariga buyurtma berish hamda tinglovchilarni qabul qilish jarayonlari raqamlashtirilganmi?*
- ❖ *Tinglovchilarni kurslarga qabul qilishning maxsus elektron tizimi (platformasi) mavjudmi?*
- ❖ *Kurslarga qabul qilish bo'yicha tartib-qoidalar ochiq va shaffof tarzda e'lon qilinganmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Qabul qilish to'g'risidagi ichki hujjat va tartib-qoidalarning rasmiy veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlarida e'loni (havolalar)*
- ✓ *Elektron qabul platformasi yoki LMS orqali arizalar reyestri*

**16. MEZON: Malaka oshirish reja-grafigi ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi hamda ta'lim dasturlarini samarali amalga oshirish uchun yetarliligi** 

**Izoh:** *Malaka oshirish reja-grafigining ta'lim tashkilotining mavjud resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi, uning ta'lim dasturlarini o'z vaqtida va samarali amalga oshirish uchun yetarli darajada rejalashtirilganligi o'rganiladi.*

**16.1. INDIKATOR**

**Malaka oshirish kurslarining davriyligi, shakllari, muddatlari belgilangan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Malaka oshirish kurslarining davriyligi, shakllari va muddatlari nima asosda va qanday shaklda ishlab chiqilgan?*
- ❖ *Malaka oshirish kurslarini yillik reja-grafigi ishlab chiqilganmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *O'quv reja*
- ✓ *Kurslarni o'tkazish yillik reja-grafigi*

**16.2. INDIKATOR**

**Ta'lim dasturi bo'yicha qabul parametr(lar)i ta'lim tashkilotining infratuzilmasi, moliyaviy imkoniyatlari, auditoriya, laboratoriya, o'quv amaliyot bazalari va davlat ta'lim talablariga mos ravishda belgilangan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Ta'lim dasturi bo'yicha qabul parametrlari qanday shakllantiriladi?*
- ❖ *Qabul parametrlarini shakllantirishda infratuzilma va moddiy-texnik ta'minot hisob-kitoblari tahlili qilinadimi?*
- ❖ *Davlat ta'lim talablariga qabul parametrlarining muvofiqligi qanday?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Ta'lim dasturi bo'yicha qabul parametrlarini belgilash to'g'risidagi hisob-kitob jadvallari*
- ✓ *Infratuzilma va moddiy-texnik ta'minot to'g'risidagi ma'lumotlar*
- ✓ *Davlat ta'lim talablariga muvofiqlik xulosasi*

**16.3. INDIKATOR**

**Ta'lim dasturi bo'yicha qabul parametr(lar)i hududning mehnat bozori, ta'lim tashkilotining maqsadi (missiya, strategiya), pedagoglar soni va tarkibi, ularning ish (o'quv) yuklamasi bilan uyg'unlashtirilgan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Ta'lim dasturlari bo'yicha qabul parametrlarini shakllantirishda mehnat bozori talablari hisobga olinganmi?*
- ❖ *Qabul parametrlari asosida o'quv yuklamalari bajarilishida ta'lim tashkilotlari pedagoglar takibi va mutaxassislik yo'nalishidan kelib chiqqan holda soatlar taqsimoti tahlili amalga oshirilganmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Mehnat bozori ehtiyojlari bo'yicha tahlil materiallari*

**16.4. INDIKATOR**

**Malaka oshirish kurslari reja-grafigi va tinglovchilar kontingentini tasdiqlash to'g'risida tegishli hujjatlar mavjud**

**Yordamchi savollar:**

❖ *Malaka oshirish kurslari reja-grafigi va tinglovchilar kontingentini tasdiqlash to'g'risida qanday hujjatlar ishlab chiqilgan?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ *Kurslarni o'tkazish yillik reja-grafigi*

## 16.5. INDIKATOR

**Ta'lim dasturi bo'yicha qabul parametr(lar)ining bajarilish holati bo'yicha har yili tahlillar amalga oshiriladi, tahlil natijalari asosida kelgusi yil qabul rejasiga o'zgartirishlar kiritiladi\*\***

**Yordamchi savollar:**

❖ *Ta'lim dasturi bo'yicha qabul parametr(lar)ining bajarilish holati bo'yicha har yili tahlillar amalga oshiriladimi?*

❖ *Ta'lim tashkilotlarining mavjud imkoniyatlarini hisobga olgan holda qabul rejasiga o'zgartirishlar kiritiladimi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ *Qabul rejasini ijrosi bo'yicha yillik tahlil hisobotlari*

**17. MEZON: Tinglovchilarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi**

**Izoh:** *Tinglovchilarni qo'llab-quvvatlash hamda ularga o'quv jarayoni davomida akademik, ijtimoiy va kasbiy yo'nalish bo'yicha maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi, ushbu xizmatlarning tizimli va samarali tashkil etilganligi o'rganiladi.*

## 17.1. INDIKATOR

**Ta'lim dasturi bo'yicha tinglovchilarni qo'llab-quvvatlash, shu jumladan akademik, ijtimoiy va kasbiy yo'nalish bo'yicha maslahat berish tizimi joriy qilingan**

**Yordamchi savollar:**

❖ *Ta'lim dasturi bo'yicha tinglovchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha hujjatlar ishlab chiqilganmi?*

❖ *Ijtimoiy himoyaga muhtoj tinglovchilar uchun individual ta'lim trayektoriyalarini ishlab chiqishda akademik, psixologik va ijtimoiy omillar inobatga olinganmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ *Tinglovchilarni qo'llab-quvvatlash va maslahat berish tartibi bo'yicha strategiya yoki ichki hujjatlar*

**17.2. INDIKATOR**

**Tinglovchilarni qo'llab-quvvatlash va maslahat xizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlar ochiq (veb-sayt, bukletlar, axborot stendlari orqali) yoritilgan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Tinglovchilarni qo'llab-quvvatlash va maslahat xizmatlari to'g'risida ularga qanday vositalar orqali yetkaziladi?*
- ❖ *Tinglovchilarga axborot materiallarini bukletlar, bannerlar va tarqatma materiallar shaklida xabardor qilish tizimi joriy etilganmi?*
- ❖ *Tashkilotning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali tinglovchilarni qo'llab-quvvatlash va maslahat xizmatlari yuritiladimi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ *Axborot materiallari (veb-sayt, bukletlar, bannerlar)*

**17.3. INDIKATOR**

**Tinglovchilarni qo'llab-quvvatlash va maslahat xizmatlaridan foydalanish bo'yicha ma'lumotlar tizimli ravishda yig'iladi, tahlil qilinadi, xizmatlardan qoniqish darajasi o'rganiladi hamda maslahat tizimi samaradorligi takomillashtiriladi\*\***

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Tinglovchilarni qo'llab-quvvatlash va maslahat xizmatlaridan qoniqish bo'yicha so'rovnomalar o'tkaziladimi?*
- ❖ *Tinglovchilarning fikr-mulohazalari tahlili yuritiladimi?*
- ❖ *Tahlil natijalari asosida ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini takomillashtirish bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilgan?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ *Tinglovchilarning qoniqish darajasini o'rganish bo'yicha so'rovnoma natijalari*

**V-bob. Inson resurslari yo'nalishi**

**Izoh:** *Ta'lim tashkilotining kadrlar salohiyati, professor-o'qituvchilar va rahbar xodimlarning malakasi, ilmiy darajasi, kasbiy rivojlanishi hamda faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan faoliyat baholanadi*

**18. MEZON:** Ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi!

*Izoh:* Ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarning mavjudligi, ularning sifat tarkibi, malaka darajasi va mutaxassisligining belgilangan talablarga muvofiqligi o'rganiladi.

### 18.1. INDIKATOR

**Boshqaruv xodimlar soni va ularning malakasi belgilangan shtat normativlariga mos, vazifalar taqsimlangan va lavozim yo'riqnoma (kasbiy standart)lari tasdiqlangan**

***Yordamchi savollar:***

- ❖ *Tashkilotning shtat jadvali va lavozim yo'riqnomalari qanday hujjatlar bilan tasdiqlangan?*
- ❖ *Tashkilotning shtat jadvali asosida barcha xodimlar ro'yhati shakllantirilganmi?*

***Asoslantiruvchi hujjat(lar):***

- ✓ *Shtat jadvali va lavozim yo'riqnomalari*
- ✓ *Boshqaruv va ma'muriy xodimlar, o'quv yordamchi xodimlar, xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlar ro'yxati.*

### 18.2. INDIKATOR

**Pedagog kadrlar soni ta'lim dasturi talablari va tinglovchi nisbatiga mos keladi**

***Yordamchi savollar:***

- ❖ *Tinglovchilar soni va ta'lim dasturlari asosida shakllantirilgan kurslar kesimidan shakllantirilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda pedagog-kadrlarga soniga mosligi tahlili yuritilganmi ?*
- ❖ *Fan (modul)lar kesimida talab etiladigan pedagog kadrlar to'g'risida ma'lumot tayyorlanganmi?*

***Asoslantiruvchi hujjat(lar):***

- ✓ *Fan (modul)lar kesimida talab etiladigan pedagog kadrlar to'g'risida ma'lumot*

### 18.3. INDIKATOR

**Pedagog kadrlar mutaxassisligi o'qitiladigan fanlar (modullar) bilan mos keladi yoki tegishli yo'nalishi bo'yicha amaliy ish tajribasiga ega, ularning diplom/sertifikatlari va malaka tasdig'i hujjatlar bilan tasdiqlangan**

***Yordamchi savollar:***

❖ Ta'lim tashkilotlarida sohaning yetuk professor-o'qituvchilari va tajribali mutaxassislar tomonidan o'qitadigan fanlari bo'yicha hujjatlarining mosligi qanday?

❖ Tajribali mutaxassislarni pedagogik faoliyat yuritishi uchun qanday normativ huquqiy hujjatlar asos bo'ladi?

***Asoslantiruvchi hujjat(lar):***

✓ *Pedagog kadrlar ro'yxati va malaka to'g'risidagi hujjatlar (diplom, sertifikat, ilmiy daraja va unvonni tasdiqlovchi hujjatlar) tegishli jadval asosida*

### 18.4. INDIKATOR

**Ilmiy salohiyat (PhD, DSc, professor, dotsent va boshqalar) darajasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq**

***Yordamchi savollar:***

❖ *Qayta tayyorlash va malaka oshirish tashkilotida faoliyat yuritayotgan pedagog xosimlarning ilmiy salohiyat ko'rsatkichlari qanday?*

❖ *Jalb qilingan pedagoglar va ularning ilmiy salohiyatiga oid ma'lumotlar qayd etilgan hujjatlar va hisobotlar qanday shakllantirilgan?*

***Asoslantiruvchi hujjat(lar):***

✓ *Pedagog kadrlarning ilmiy salohiyati to'g'risidagi hujjatlar*

**19. MEZON: Amaldagi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi modullarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlangani** !

***Izoh:*** *Amaldagi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejada belgilangan modullarga mos kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlanganligi, ularning malakasi va tajribasining ta'lim mazmuniga muvofiqligi o'rganiladi.*

### 19.1. INDIKATOR

**Pedagog kadrlarning mutaxassisligi, ish staji va tajribasi malaka oshirish kurslari fanlar (modullar) bo'yicha fan profiliga mos keladi\*\***

***Yordamchi savollar:***

❖ *Professor-o'qituvchilarning ular tomonidan o'qitiladigan fanlar (modullar) bo'yicha tegishli oliy ma'lumoti, mutaxassisligi (ixtisosligi) va kasbiy tayyorgarligi qanday hujjatlar asosida tasdiqlangan?*

❖ *Fanlar (modullar)ni o'qitishga professor-o'qituvchilarni biriktirishda ularning mutaxassisligi va kasbiy tayyorgarligi qanday mezonlar asosida hisobga olingan?*

❖ *Qayta tayyorlash va malaka oshirish tashkilotlari Professor-o'qituvchilari va xodimlarini malaka oshirish holati qanday?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ *Pedagog kadrlar ro'yxati va malaka to'g'risidagi hujjatlar (diplom, sertifikat, ilmiy daraja va unvonni tasdiqlovchi hujjatlar) tegishli jadval asosida*

✓ *Pedagog kadrlar va ular dars beradigan fan(lar) ro'yxati*

**19.2. INDIKATOR**

**Malaka oshirish kurslari fanlar (modullar) bo'yicha tegishli oliy ma'lumot va kasbiy tayyorgarlikka ega pedagog kadrlar bilan ta'minlangan\*\***

**Yordamchi savollar:**

❖ *Malaka oshirish kurslari fanlar (modullar) bo'yicha tegishli oliy ma'lumot va kasbiy tayyorgarlikka ega pedagog kadrlar bilan ta'minlanganmi?*

❖ *Oliy ma'lumotli nopedagog mutaxassislarining fanlar (modullar) dars o'tishiga ruxsat berilgani bo'yicha qanday normativ huquqiy hujjatlar amalda?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ *Pedagog kadrlar va ular dars beradigan fan(lar) ro'yxati*

**19.3. INDIKATOR**

**Pedagog kadrlar ilmiy maqolalar, ilmiy nashrlar yoki ilmiy-texnik loyihalar va tadqiqotlarda faol ishtirok etgan\*\***

**Yordamchi savollar:**

❖ *Pedagog kadrlar tomonidan tayyorlangan ilmiy maqolalar va ilmiy nashrlar to'g'rida jadval shakllantirilganmi?*

❖ *Pedagog kadrlar tomonidan ilmiy-texnik loyihalar va tadqiqotlarda ishtirokini ta'minlovchi qanday hujjatlar mavjud?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ *Ilmiy maqolalar va nashrlar ro'yxati*

✓ *Ilmiy-tadqiqot yoki loyihalarda ishtirokni tasdiqlovchi hujjatlar*

#### 19.4. INDIKATOR

**Pedagog kadrlar davriy ravishda malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida, seminar va treninglarda yoki stajirovkalarda ishtirok etgan\*\***

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Pedagog kadrlarning oxirgi marta qayta tayyorlash, malaka oshirish, stajirovka o'taganligini tasdiqlovchi hujjatlar yuritilganmi?*
- ❖ *Seminar, trening va stajirovkalarda ishtirok etganlikni tasdiqlovchi hujjatlar bormi?*
- ❖ *Pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishi bo'yicha tahliliy hisobot tayyorlanganmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Malaka oshirish va qayta tayyorlash sertifikatlari*
- ✓ *Seminar, trening va stajirovkalarda ishtirok etganlikni tasdiqlovchi hujjatlar*
- ✓ *Pedagoglarning kasbiy rivojlanishi bo'yicha yillik hisobotlar*

#### 19.5. INDIKATOR

**Fanlarning (modullarning) amaliy (laboratoriya) qismlarini olib borish uchun pedagog kadrlarning yetarli malakasi mavjud\*\***

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Amaliy (laboratoriya) mashg'ulotlarni olib boruvchi pedagog kadrlarning malaka/sertifikatlari (yoki stajirovka hujjatlari) jadvali ishlab chiqilganmi?*
- ❖ *Fanlarning (modul) bo'yicha Amaliy (laboratoriya) mashg'ulotlarni olib boruvchi pedagog kadrlar ro'yxati shakllantirilganmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

*Amaliy (laboratoriya) mashg'ulotlarni olib boruvchi pedagog kadrlarning malaka/sertifikatlari (yoki stajirovka hujjatlari)*

**20. MEZON: Yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi modullarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi**

**Izoh:** *Yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejada belgilangan modullarga mos kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlashga qaratilgan aniq rejaning mavjudligi, unda kadrlarga bo'lgan ehtiyoj, tayyorlash va jalb etish chora-tadbirlarining belgilanganligi o'rganiladi.*

### 20.1. INDIKATOR

Yangi ta'lim dasturi bo'yicha pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyoj tahlil qilingan\*

**Yordamchi savollar:**

- ❖ Yangi ta'lim dasturi tarkibidagi fan (modul)larga ajratilgan soatlar miqdorini rejalashtirilgan kurslar soni nisbatida umumlashtirilganmi?
- ❖ Umumiy soatlar hajmidan kelib chiqib mutaxassislik yo'nalishi pedagog xodimlarga bo'lgan ehtiyoj shakllantirilganmi?
- ❖ Pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha 3–5 yillik istiqbol reja ishlab chiqilganmi?

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ Yangi ta'lim dasturlari bo'yicha kadrlar ehtiyoji tahliliy ma'lumot
- ✓ Pedagog kadrlar bilan ta'minlash 3–5 yillik istiqbol rejasi

### 20.2. INDIKATOR

Yangi ta'lim dasturlari bo'yicha pedagog kadrlarni jalb qilish strategiyasi (tanlov, konkurs, grantlar orqali) belgilangan

**Yordamchi savollar:**

- ❖ Agar ta'lim dasturi yangi bo'lsa, professor-o'qituvchilar tarkibini shakllantirish bo'yicha reja qanday ishlab chiqilgan va uning amalga oshirilishi qanday nazorat qilinmoqda
- ❖ Pedagog kadrlarni jalb etishda tanlovlar, grantlar va shu singari qanday loyihalarni amalga oshirilishi rejalashtirilgan?

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ Pedagog kadrlar bilan ta'minlash 3–5 yillik istiqbol rejasi

### 20.3. INDIKATOR

Fanlar (modullar) mazmuniga mos kasbiy ko'nikmaga ega bo'lgan pedagog kadrlarni ishga qabul qilish va kadrlar zaxirasini yaratish mexanizmi mavjud

**Yordamchi savollar:**

- ❖ Fan (modul)lar mazmuniga mos kasbiy ko'nikmaga ega kadrlarni ishga qabul qilish qanday tartibda amalga oshiriladi?
- ❖ Fan dasturlari hajmidan kelib chiqqan holda pedagog kadrlar zaxirasini shakllantirish mexanizmi mavjudmi?

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ Kadrlar jalb etish va tanlov o'tkazish reglamenti

#### 20.4. INDIKATOR

**O'quv jarayoniga pedagogik mahorat va kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassislarni jalb qilish imkoniyatlari ko'zda tutilgan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ O'quv jarayoniga pedagogik mahorat va kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassislarni jalb etish bo'yicha qanday choralar ko'rilgan?
- ❖ Mutaxassislarni ishga jalb qilish maqsadida qanday hujjatlar asosida ish olib borilmoqda?

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ Kadrlar zaxirasini shakllantirish bo'yicha ichki buyruq va qarorlar

#### 21. MEZON: Amaliyotchi hamda xorijiy mutaxassislarni jalb qilish imkoniyatlarining mavjudligi !

**Izoh:** Ta'lim jarayoniga amaliyotchi mutaxassislar hamda xorijiy ekspertlarni jalb qilish imkoniyatlarining mavjudligi, ular bilan hamkorlik mexanizmlari va ushbu jarayonlarni amalga oshirish amaliyoti o'rganiladi.

#### 21.1. INDIKATOR

**O'quv jarayoniga xalqaro va mahalliy tashkilotlardan amaliyotchi mutaxassislarni jalb qilish bo'yicha hamkorlik memorandum (huquqiy asos)lari mavjud**

(ta'lim dasturi doirasidagi asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar soni ta'lim dasturi doirasidagi barcha professor-o'qituvchilar soniga nisbatan kamida 70 foizni tashkil etadi)

(Bunda yangi ta'lim dasturi uchun professor-o'qituvchilar tarkibi bo'yicha aniq reja taqdim etilgan taqdirda professor-o'qituvchilar bilan amalda ta'minlanish talab etilmaydi)

**Yordamchi savollar:**

- ❖ Ta'lim tashkilotining xalqaro va mahalliy tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari (huquqiy asos) qanday?
- ❖ O'quv jarayoniga xalqaro va mahalliy mutaxassislarni jalb etish bo'yicha 3-5 yillik istiqbolli reja ishlab chiqilganmi?

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ Hamkorlik memorandumlari yoki shartnomalar

- ✓ *Ta'lim tashkilotining xorijiy mutaxassislar va mahalliy kadrlarni jalb qilish bo'yicha 3–5 yillik istiqbol rejasi*

### 21.2. INDIKATOR

**Amaliyotchi hamda xorijiy mutaxassislarni jalb qilishning moliyaviy manbalari (byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar va boshqalar) belgilangan**

*(Bunda yangi ta'lim dasturi uchun ilmiy daraja va unvonga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar tarkibi bo'yicha aniq reja taqdim etilgan taqdirda ilmiy daraja va unvonga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar bilan amalda ta'minlanish talab etilmaydi)*

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Amaliyotchi hamda xorijiy mutaxassislarni jalb qilishning moliyaviy manbalari rejalashtirilganmi?*
- ❖ *Moliyalashtirish manbalari to'g'risidagi hisob-kitoblar qilinganmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Moliyalashtirish manbalari to'g'risidagi hisob-kitoblar*

### 21.3. INDIKATOR

**Ta'lim dasturlari mazmuniga mos amaliyotchi va xorijiy mutaxassislar jalb etilishi hamda ular tomonidan master-klasslar yoki treninglar o'tkazish uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilgan**

*(Bunda yangi ta'lim dasturi uchun o'quv-yordamchi kadrlar tarkibi bo'yicha aniq reja taqdim etilgan taqdirda o'quv-yordamchi kadrlar bilan amalda ta'minlanish talab etilmaydi)*

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Amaliyotchi va xorijiy mutaxassislar jalb etilishi hamda ular tomonidan master-klasslar yoki treninglar o'tkazish reja-grafigi tasdiqlanganmi*
- ❖ *Master-klass, trening, laboratoriya va shu singari mashg'ulotlar o'tkazish uchun qanday shart-sharoitlar yaratilgan?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Master-klass va treninglar o'tkazish reja-grafigi (mahalliy va xorijiy mutaxassislar)*
- ✓ *O'quv auditoriyalari va laboratoriyalar tayyor holatini tasdiqlovchi hujjatlar*

## 22. MEZON: Kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi

**Izoh:** Kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilganligi, shuningdek ularni moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirish tizimining mavjudligi hamda amalda qo'llanilishi o'rganiladi.

### 22.1. INDIKATOR

**Pedagog va xodimlar uchun kasbiy rivojlanish va malaka oshirish chora tadbirlari ishlab chiqilgan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Pedagog va xodimlar uchun har yillik malaka oshirish, stajirovkasi bo'yicha reja-grafik tasdiqlanganmi?*
- ❖ *Pedagog va xodimlarni ish xususiyatidan kelib chiqqan holda qayta tayyorlash yuzasidan qanday chora-tadbirlar belgilangan?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Pedagog va xodimlarning kasbiy rivojlanish rejasi*
- ✓ *Malaka oshirish va qayta tayyorlash chora-tadbirlari dasturi*

### 22.2. INDIKATOR

**Pedagoglar va xodimlar uchun moddiy rag'batlantirish tizimi (mukofotlash, lavozim o'sishi) joriy etilgan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Pedagoglar va xodimlarni rag'batlantirish mexanizmi qanday hujjatlar bilan tartibga solingan?*
- ❖ *Amaliy ish faoliyatida yuqori natijalarga erishgan pedagog va xodimlarni mukofotlash va lavozim o'sishi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tahlili hamda huquqiy asoslari?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Moddiy rag'batlantirish to'g'risidagi nizom*
- ✓ *Mukofotlash va lavozim o'sishi bo'yicha buyruqlar*

### 22.3. INDIKATOR

**Pedagog va xodimlar uchun ma'naviy rag'batlantirish tizimi (faxriy yorliq, tashakkurnoma, diplom va boshqalar) yo'lga qo'yilgan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Pedagog va xodimlarning erishgan yutuqlari (davlat mukofotlari, faxriy unvonlar, xalqaro va respublika tanlovlar g'olibliklari) va ularni ma'naviy rag'batlantirish mexanizmi joriy etilganmi?*
- ❖ *Pedagog va xodimlar yutuqlarini muntazam yangilab borish, tasniflash va monitoring qilish jarayoni qanday tashkil etilgan?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Ma'naviy rag'batlantirish to'g'risidagi nizom*
- ✓ *Faxriy yorliq, tashakkurnoma, diplomlar nusxalari*

**23. MEZON: Xorijda malaka oshirgan professor-o'qituvchilarning o'quv jarayoniga jalb qilingani** 

***Izoh:** Xorijda malaka oshirgan professor-o'qituvchilarning o'quv jarayoniga jalb etilganligi, ularning xalqaro tajribasidan ta'lim mazmuni va o'qitish usullarini takomillashtirishda foydalanilishi o'rganiladi.*

**23.1. INDIKATOR**

**Xorijda malaka oshirgan yoki stajirovka o'tagan pedagog kadrlarga oid to'liq ma'lumotlar bazasi mavjud**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Xorijda malaka oshirgan yoki stajirovka o'tagan pedagog kadrlarga oid ma'lumotlar shakllantirilganmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Xorijda malaka oshirgan yoki stajirovka o'tagan pedagog kadrlar to'g'risida ma'lumot*

**23.2. INDIKATOR**

**Xorijda malaka oshirgan yoki stajirovka o'tagan pedagog kadrlar ta'lim dasturlari va fanlar (modullar) doirasida dars berishga jalb qilingan\*\***

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Har bir fan (modul) bo'yicha talab qilinadigan mutaxassisliklar va kompetensiyalar asosida xorijda malaka oshirgan yoki stajirovka o'tagan pedagog kadrlar biriktirilganmi?*
- ❖ *O'quv yuklamasi taqsimoti shakllantirilganmi?*
- ❖ *O'quv yuklamasi taqsimoti asosida tasdiqlanadigan dars jadvallarida xorijda malaka oshirgan yoki stajirovka o'tagan pedagoglar ishtiroki keltirilganmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Pedagoglarni fanlar (modullar)ga biriktirish taqsimoti*
- ✓ *Dars jadvalida xorijiy tajribaga ega pedagoglar ishtiroki*
- ✓ *O'quv yuklamasi taqsimoti jadvali*

### 23.3. INDIKATOR

**Xorijda malaka oshirgan yoki stajirovka o'tagan pedagog kadrlar tomonidan ta'lim tashkilotida master klasslar o'tkazilgan\*\***

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Xorijda malaka oshirgan yoki stajirovka o'tagan pedagog kadrlar tomonidan master-klasslar o'tkazish reja-grafigi ishlab chiqilganmi?*
- ❖ *O'tkazilgan master-klass mashg'uloti bo'yicha qanday rasmiylashtirilgan hujjatlari mavjud?*
- ❖ *O'tkazilgan master-klass mashg'uloti taqdimot materiallari, fotosuratlar, hisobotlar mavjudmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Master-klasslar o'tkazish reja-grafigi*
- ✓ *O'tkazilgan master-klasslar bo'yicha bayonnomalar*
- ✓ *Master-klass materiallari (taqdimot, foto, hisobot)*

## **VI-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi**

*Izoh: Ta'lim dasturlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik baza, o'quv binolari, laboratoriyalar, amaliy mashg'ulot xonalari, axborot-resurs markazlari va zamonaviy o'quv-ilmiy jihozlar bilan ta'minlanganlik darajasi, shu bilan birga, xomashyo va o'quv materiallarining mavjudligi, ularning muntazam yangilanishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga erkin kirish imkoniyati hamda ta'lim muhitining xavfsizligi va inklyuzivligini tahlil qilinadigan faoliyat baholanadi.*

**24. MEZON: Ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani**

*Izoh: Ta'lim dasturini amalga oshirishda amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqa o'quv vositalarining mavjudligi, shuningdek ular bo'yicha tegishli metodik qo'llanma va ko'rsatmalar bilan ta'minlanganligi o'rganiladi.*

### 24.1. INDIKATOR

**Ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha infratuzilma, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, xomashyo materiallari va inventarlar mavjud hamda ular ta'lim dasturining talablariga mos\***

***Yordamchi savollar:***

❖ *Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlarini bajarishda zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalar ro'yxati hisobi jadval asosida shakllantirilganmi?*

❖ *Ta'lim tashkiloti balansidagi asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjudmi?*

***Asoslantiruvchi hujjat(lar):***

✓ *Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlarini bajarishda zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalar ro'yxati hamda tegishli jadvallar asosida.*

✓ *Asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarni tashkilot balansida mavjudligi*

**24.2. INDIKATOR**

**Ta'lim dasturi bo'yicha jihozlar va texnikalar soni tinglovchilar kontingentidan (guruh hajmidan) kelib chiqqan holda ta'minlangan**

***Yordamchi savollar:***

❖ *Ta'lim dasturi bo'yicha jihozlar va texnikalar soni tinglovchilar kontingentidan kelib chiqqan holda ta'minlanganmi?*

❖ *Ta'lim tashkiloti balansidagi asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjudmi?*

***Asoslantiruvchi hujjat(lar):***

✓ *Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, ro'yxati tegishli jadval asosida*

**24.3. INDIKATOR**

**Ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha korxonalar, tashkilotlar, ta'lim tashkilotlari bilan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha hamkorlik shartnomalari yoki kelishuvlar mavjud**

**Yordamchi savollar:**

❖ *Ta'lim tashkilotining amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha korxonalar, tashkilot va ta'lim muassasalari bilan hamkorlik shartnomalari, memorandumlar va kelishuvlar tuzilganmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ *Hamkorlik shartnomalari va memorandumlar nusxalari*

**24.4. INDIKATOR**

**Mashg'ulotlarda zarur asbob-uskuna va texnikalardan foydalanish bo'yicha metodik qo'llanmalar, yo'riqnomalar mavjud**

**Yordamchi savollar:**

❖ *Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun o'quv adabiyotlari mavjudmi?*

❖ *Metodik qo'llanmalar, yo'riqnomalar, instruktsiyalar va boshqa turdagi o'quv adabiyotlari ro'yxati jadval shaklida shakllantirilganmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ *Metodik qo'llanmalar, yo'riqnomalar, instruktsiyalar ro'yxati tegishli jadval asosida*

**24.5. INDIKATOR**

**Xomashyo va (yoki) yonilg'i-moylash materiallaridan foydalanish hamda ularni hisobdan chiqarish tartibi mavjud va ular yuritib (hujjatlashtirib) boriladi\*\***

**Yordamchi savollar:**

❖ *Ta'lim tashkilotida Xomashyo va (yoki) yonilg'i-moylash materiallaridan foydalanish hamda ularni hisobdan chiqarish tartibi mavjudmi?*

❖ *Ta'lim tashkilotida Xomashyo va (yoki) yonilg'i-moylash materiallarini hisobdan chiqarish hujjatlar mavjudmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ *Xomashyo va (yoki) yonilg'i-moylash materiallaridan foydalanish va hisobdan chiqarish bo'yicha hujjatlar*

**24.6. INDIKATOR**

**Asbob-uskuna va texnikalar bilan ishlash bo'yicha pedagog kadrlar va tinglovchilar uchun soha mutaxassislari yoki ish beruvchilar bilan hamkorlikda treninglar o'tkazish yo'lga qo'yilgan\*\***

**Yordamchi savollar:**

❖ *Pedagog kadrlar va tinglovchilar uchun asbob-uskuna va texnikalar bilan ishlash hamda ularning xavfsizlik qoidalariga amal qilishlari maqsadida treninglar o'tkazish bo'yicha soha mutaxassislari jalb etilganmi?*

❖ *O'tkazilgan trening mashg'ulotiga oid hujjatlar rasmiylashtirish holati qanday?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

*Asbob-uskunalardan foydalanish bo'yicha tashkil etilgan seminar/trening/majlis bayonnomalari*

## 25. MEZON: Modullar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani



**Izoh:** *Modullar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, shuningdek elektron ta'lim resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi, ularning belgilangan talablarga muvofiqligi hamda o'quv jarayonida samarali qo'llanilishi o'rganiladi.*

**25.1. INDIKATOR**

**Har bir fan (modul) bo'yicha o'quv adabiyotlar, qo'llanmalar va o'quv uslubiy majmualar mavjud\***

**Yordamchi savollar:**

❖ *Har bir fan (modul) bo'yicha o'quv adabiyotlar, qo'llanmalar va o'quv uslubiy majmualarni ta'minlanganlik holati qanday?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ *Fan (modul)lar bo'yicha adabiyotlar ro'yxati, ta'minlanganlik jadvali*

**25.2. INDIKATOR**

**O'quv adabiyotlari, qo'llanmalar va o'quv uslubiy majmualar fan (modul)ning mazmuni va o'quv maqsadlariga mos**

**Yordamchi savollar:**

❖ *Fan dasturiga ko'ra har bir fan (modul) bo'yicha o'quv adabiyotlar, qo'llanmalar va o'quv uslubiy majmualar mazmuniga mosligi bo'yicha hisobotlar tayyorlanganmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ *Ta'lim dasturi*

- ✓ *O'quv adabiyotlari, qo'llanmalar va o'quv uslubiy majmualar fan (modul)larga moslik bo'yicha hisobot*

### 25.3. INDIKATOR

**Fan (modul)lari bo'yicha raqamli ta'lim resurslari ishlab chiqilgan va elektron kutubxonaga joylashtirilgan\*\***

***Yordamchi savollar:***

- ❖ *Fan (modul)lari bo'yicha raqamli ta'lim resurslari ishlab chiqilganligi bo'yicha tahliliy jadval shakllantirilganmi?*
- ❖ *Mavjud raqamli ta'lim resurslari elektron kutubxona va raqamli ta'lim platformasiga joylashtirilganmi?*

***Asoslantiruvchi hujjat(lar):***

- ✓ *Onlayn ta'lim/axborot-resurs platformalari*

### 25.4. INDIKATOR

**Pedagog kadrlar va tinglovchilar uchun elektron ta'lim resurslarga uzluksiz kirish imkoniyati mavjud\*\***

***Yordamchi savollar:***

- ❖ *Ta'lim tashkilotining axborot-resurs platformasi boshqa elektron ta'lim resurslariga integratsiya qilinganmi?*
- ❖ *Pedagog kadrlar va tinglovchilar uchun elektron ta'lim resurslarga kirish imkoniyatlari mavjudmi?*

***Asoslantiruvchi hujjat(lar):***

- ✓ *Onlayn ta'lim/axborot-resurs platformalariga kirish imkoniyati mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar*

### 25.5. INDIKATOR

**O'quv jarayonida adabiyotlar va elektron resurslarning qo'llanilishi samaradorligi (tinglovchi faolligi, natijalar tahlili orqali) muntazam tahlil qilinadi va yangilab boriladi\*\***

***Yordamchi savollar:***

- ❖ *O'quv jarayonida adabiyotlar va elektron resurslarning qo'llanilishi samaradorligi qanday?*
- ❖ *O'quv adabiyotlarining yangilanib borish ko'rsatkichlari qanday va zamonaviy yangi fanlar uchun zarur ehtiyojlar tahlili yuritiladimi?*

***Asoslantiruvchi hujjat(lar):***

✓ *O'quv adabiyotlari va metodik qo'llanmalar doimiy yangilanib, zamonaviy fanlar (modullar) va ilmiy-texnologik rivojlanish tendensiyalariga moslashtirilganligi haqida ma'lumot*

## 25.6. INDIKATOR

**Fan (modul) mazmuniga mos zamonaviy xorijiy adabiyotlardan va qo'shimcha materiallardan foydalanish imkoniyati yaratilgan\*\***

### **Yordamchi savollar:**

❖ *Axborot resurs markazida fan dasturi doirasida zamonaviy xorijiy adabiyotlardan va qo'shimcha o'quv materiallaridan foydalanish imkoniyati qanday?*

### **Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ *Fan dasturlari, ARM/onlayn axborot-resurs platformasidagi manbalar*

**26. MEZON: O'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning tinglovchilar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani!**

***Izoh:** O'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning tinglovchilar sonidan kelib chiqib ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlanganligi, shuningdek o'quv jarayonida mehnat muhofazasi va xavfsizlik qoidalariga rioya etilganligi o'rganiladi.*

## 26.1. INDIKATOR

**Ta'lim tashkiloti tinglovchilar kontingentidan kelib chiqqan holda o'quv xonalari bilan ta'minlangan\***

### **Yordamchi savollar:**

❖ *O'quv xonalari, laboratoriyalar va maxsus xonalar xususiyatini hisobga olgan holda tinglovchilar kontingenti shakllantirilganmi?*

❖ *O'quv xonalari, laboratoriyalar va maxsus xonalar belgilangan minimal talablar asosida hisobi yuritilganmi?*

### **Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ *O'quv xonalari va laboratoriyalar ro'yxati, minimal talablar bajarilganligi haqida asosnoma (qiyoslama jadval)*

## 26.2. INDIKATOR

**Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlar o'tkaziladigan o'quv xonalari va moddiy-texnik baza mehnatni muhofaza qilish qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari, shaharsozlik normalari va qoidalari hamda yong'in va texnika xavfsizligi qoidalariga javob beradi**

***Yordamchi savollar:***

❖ *Ta'lim tashkilotining bino va inshootlari hamda moddiy-texnik bazasining mehnatni muhofaza qilish, sanitariya-gigiyena, shaharsozlik, yong'in va texnika xavfsizligi qoidalariga muvofiqligi qanday hujjatlar va tekshiruvlar bilan tasdiqlangan?*

❖ *Mazkur talablarga rioya etilishini ta'minlash uchun qanday ichki nazorat, profilaktik tekshiruvlar va rejalashtirilgan tadbirlar amalga oshirilgan?*

❖ *Aniqlangan kamchiliklar va xavf-xatarlarni bartaraf etish hamda infratuzilmani doimiy ravishda xavfsiz holatda saqlash bo'yicha qanday chora-tadbirlar ko'rilgan va ularning ijrosi qanday monitoring qilingan?*

***Asoslantiruvchi hujjat(lar):***

- ✓ *Jihozlar va asbob-uskunalar inventarizatsiya ro'yxati*
- ✓ *Texnika xavfsizligi bo'yicha yo'riqnomalar va aktlar*

**26.3. INDIKATOR**

**Laboratoriyalar va ustaxonalar (poligonlar) ta'lim dasturiga mos asbob-uskunalar, jihozlar va texnikalar bilan ta'minlangan, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish vositalari mavjud, evakuatsiya yo'llari (sxemalari) belgilangan hamda xavfsizlik jurnallarini yuritish yo'lga qo'yilgan**

***Yordamchi savollar:***

❖ *Laboratoriyalar va ustaxonalar (poligonlar) ta'lim dasturiga mos qanday asbob-uskunalar, jihozlar va texnikalar bilan ta'minlangan?*

❖ *Ta'lim tashkilotida evakuatsiya yo'llari (sxemalari) bino devorlarida o'rnatilganmi?*

❖ *Evakuatsiya rejasi va yong'in xavfsizligi hujjatlari ishlab chiqilganmi?*

***Asoslantiruvchi hujjat(lar):***

- ✓ *Evakuatsiya rejasi va yong'in xavfsizligi hujjatlari*

**26.4. INDIKATOR**

**Fanlar (modullar) ehtiyojini hisobga olgan holda o'quv xonalarida axborot-kommunikatsiya vositalari (proyektor, kompyuter va boshqalar) o'rnatilgan hamda IT infratuzilma shakllantirilgan**

***Yordamchi savollar:***

❖ O'quv xonalarida qaysi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (kompyuterlar, proyektorlar, interaktiv doskalar, audio-video uskunalar va boshqalar) bilan jihozlangan?

❖ Mazkur AKT vositalarining miqdori, texnik holati va joylashtirilishi o'quv mashg'ulotlarini samarali tashkil etish talablariga qanday mos keladi?

❖ O'quv xonalarida AKTdan foydalanish darajasi va uning ta'lim jarayoni sifati hamda o'qitish samaradorligiga ta'siri qanday tahlil qilingan?

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ Axborot-kommunikatsiya vositalari to'g'risidagi ma'lumotnoma, ularning dislokatsiyasi haqidagi ma'lumot

**26.5. INDIKATOR**

**O'quv, laboratoriya xonalari va ustaxonalarda (poligonlarda) tinglovchilar uchun yetarli o'rindiqlar va ish joylari mavjud**

**Yordamchi savollar:**

❖ O'quv, laboratoriya xonalari va ustaxonalarda (poligonlarda) tinglovchilar uchun yetarli o'rindiqlar va ish joylari mavjudmi?

❖ O'quv, laboratoriya xonalari va ustaxonalarni jihozlanish holati bo'yicha texnik ta'minlanganligi to'g'risida ma'lumot tayyorlanganmi?

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

✓ Xonalarni tekshirish (texnik holat) bo'yicha hisobotlar

**27. MEZON: Inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani!**

**Izoh:** Inklyuziv ta'limni ta'minlash maqsadida binolar va jihozlarning moslashtirilganligi, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, shuningdek axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilganligi o'rganiladi.

**27.1. INDIKATOR**

**Ta'lim tashkiloti binolar va o'quv xonalari, shu jumladan yo'laklar, panduslar, liftlar, eshiklar va sanitariya xonalari nogironligi bo'lgan shaxslar (tinglovchilar) uchun moslashtirilgan**

❖ Ta'lim tashkilotining binolari va o'quv xonalarni nogironligi bo'lgan shaxslar uchun moslashtirishda qaysi me'yoriy talablar va standartlar (panduslar, eshiklar kengligi, yo'laklar, sanitariya xonalari) asos qilib olingan?

❖ *Nogironligi bo'lgan tinglovchilar uchun moslashtirilgan infratuzilma elementlari (panduslar, liftlar, maxsus hojatxonalar, kirish-chiqish yo'laklari) qaysi binolarda va qay darajada joriy etilgan?*

❖ *Mazkur moslashtirish choralari nogironligi bo'lgan tinglovchilarning ta'lim jarayonida to'laqonli ishtirok etishiga ta'sirini aniqlash bo'yicha qanday monitoring va tahlil ishlari olib borilgan?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Binolar va inshootlar texnik pasporti yoki loyiha hujjatlari*
- ✓ *Inspeksiya yoki ekspertiza dalolatnomalari*

**27.2. INDIKATOR**

**Inklyuziv ta'lim uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari va dasturiy ta'minotdan foydalanish imkoniyati yaratilgan**

**Yordamchi savollar:**

❖ *Inklyuziv ta'limni ta'minlash uchun qaysi AKT vositalari, elektron ta'lim resurslari va dasturiy ta'minotlar (audio-video materiallar, Brayl alifbosi, subtitrilar, ekran o'quvchi dasturlar va boshqalar) joriy etilgan?*

❖ *Mazkur AKT va dasturiy vositalardan nogironligi bo'lgan tinglovchilar foydalanishi uchun qanday texnik va tashkiliy shart-sharoitlar yaratilgan?*

❖ *Inklyuziv ta'lim uchun joriy etilgan AKT va elektron resurslarning samaradorligi hamda ularning ta'lim jarayoniga ta'siri qanday monitoring va tahlil qilingan?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Maxsus o'quv materiallari (audio, Brayl, elektron)*
- ✓ *AKT vositalari, onlayn/elektron ta'lim platformalariga kirish ma'lumotlari*

**27.3. INDIKATOR**

**Ta'lim jarayonida inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlovchi pedagog va psixolog tomonidan yordam ko'rsatish tizimi mavjud\*\***

**Yordamchi savollar:**

❖ *Ta'lim jarayonida inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlash siyosati qanday amalga oshirilmoqda?*

❖ *Ta'lim jarayonida inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlash maqsadida pedagog va psixologlar faoliyati mavjudmi?*

❖ *Bu borada ta'lim tashkiloti tomonidan qanday hujjatlar ishlab chiqilgan?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Inklyuziv ta'lim siyosati va ichki nizomlar*

## **28. MEZON: Axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi**

*Izoh: Axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari va kompyuter texnikasi bilan ta'minlanganligi, o'quv zali hamda elektron kutubxonaning mavjudligi va ulardan foydalanish imkoniyatlari o'rganiladi.*

### **28.1. INDIKATOR**

**ARMda ta'lim dasturiga mos o'quv qo'llanma va adabiyotlar, badiiy adabiyotlar mavjud, kutubxona fondi yaratilgan**

#### **Yordamchi savollar:**

- ❖ *ARM fondi tarkibi (bosma va elektron resurslar) fanlar (modullar) va ta'lim dasturlari kesimida qanday shakllantirilgan?*
- ❖ *Kitoblar va elektron manbalar sonining tinglovchilar kontingentiga nisbati qaysi me'yoriy hujjatlar va minimal talablarga muvofiq holda hisoblangan?*
- ❖ *ARM fondidan foydalanish ko'rsatkichlari (o'qish zaliga tashriflar, berilgan adabiyotlar, elektron resurslarga kirishlar) qanday monitoring va tahlil qilingan?*

#### **Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Kutubxonada mavjud adabiyotlar ro'yxati*

### **28.2. INDIKATOR**

**ARMda o'quv zali, elektron kutubxonadan foydalanish va internet tarmog'iga ulanish imkoniyati yaratilgan**

#### **Yordamchi savollar:**

- ❖ *Ta'lim dasturi bo'yicha maxsus o'quv materiallari (Brayl alifbosidagi kitoblar, ko'rgazmali materiallar), maxsus jihozlar va yordamchi texnik vositalar qanday ta'minlangan va mavjudligi tasdiqlangan?*
- ❖ *Ushbu maxsus resurslar nogironligi bo'lgan tinglovchilar uchun ta'lim jarayonida samarali foydalanishni va o'quv natijalariga erishishni qanday ta'minlaydi?*
- ❖ *Maxsus o'quv materiallari va jihozlarning holatini monitoring qilish, yangilash va texnik xizmat ko'rsatish mexanizmlari qanday tashkil etilgan?*

#### **Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Kompyuter va internet jihozlari ro'yxati*
- ✓ *Axborot resurslaridan foydalanish bo'yicha yo'riqnomalar*

### 28.3. INDIKATOR

**ARM kompyuter vositalari va internet tarmog'iga ulangan elektron qurilmalar bilan jihozlangan hamda Wi-Fi zonalarni tashkil etilgan**

***Yordamchi savollar:***

- ❖ *ARM fondidagi kompyuter va internet jihozlari ro'yxati shakllantirilganmi?*
- ❖ *Tinglovchilar va xodimlarning ARMDan foydalanish bo'yicha hujjat ishlab chiqilganmi?*
- ❖ *ARMda Wi-Fi zonalari tashkil etilganmi?*

***Asoslantiruvchi hujjat(lar):***

- ✓ *Kompyuter va internet jihozlari ro'yxati*
- ✓ *Axborot resurslaridan foydalanish bo'yicha yo'riqnomalar*
- ✓ *Wi-Fi zonalarni tashkil etilganligini to'g'risidagi ma'lumotlar*

### 28.4. INDIKATOR

**Elektron kutubxona tizimida ta'lim dasturi bo'yicha o'quv qo'llanma va adabiyotlar, o'qitish materiallari to'plami, raqamli ta'lim resurslari va multimedia kontentlar raqamli formatda joylashtirilgan**

***Yordamchi savollar:***

- ❖ *Elektron kutubxona tizimida ta'lim dasturi bo'yicha o'quv qo'llanma va adabiyotlar, o'qitish materiallari to'plami, raqamli ta'lim resurslari hamda multimedia kontentlar raqamli formatdagi shakllari bormi?*
- ❖ *Raqamli ta'lim resurslari va multimedia kontentlari ro'yxati shakllantirilganmi?*
- ❖ *Tinglovchilar va xodimlarning elektron kutubxonadan foydalanishi qanday hujjat bilan tartibga solingan?*

***Asoslantiruvchi hujjat(lar):***

- ✓ *Elektron kutubxona resurslari reyestri*
- ✓ *Raqamli ta'lim resurslari va multimedia kontentlar ro'yxati*
- ✓ *Elektron kutubxona tizimini yuritish to'g'risidagi hujjatlar*

### 28.5. INDIKATOR

**ARMDan foydalanish tartibi qulay va ochiq, elektron ma'lumotlar bazasiga erkin kirish ta'minlangan, kutubxona xizmatlaridan foydalanish samaradorligi monitoringi yuritilgan\*\***

***Yordamchi savollar:***

- ❖ *Tinglovchilar va xodimlarning ARMdani foydalanish ko'rsatkichlari tahlili qanday yuritiladi?*
- ❖ *Elektron ma'lumotlar bazasidan foydalanish ko'rsatkichlari tahlili yuritilganmi?*
- ❖ *ARM faoliyati bo'yicha tahliliy monitoring qanday yuritiladi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *ARMdan foydalanish tartibi*
- ✓ *Kutubxona xizmatlari samaradorligi bo'yicha monitoring hisobotlari*

**29. MEZON: Raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari)!**

**Izoh:** *Raqamli ta'lim muhitining yaratilganligi, jumladan LMS tizimi, Wi-Fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlarining mavjudligi hamda ularning o'quv jarayonida samarali qo'llanilishi o'rganiladi.*

**29.1. INDIKATOR**

**Ta'lim dasturi bo'yicha tinglovchilar va pedagoglar uchun barqaror internet ulanishi, Wi-Fi zonalari va zarur raqamli qurilmalardan (kompyuterlar, planshetlar va boshqalar) foydalanish imkoniyati yaratilgan**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Tinglovchilar va pedagog xodimlar uchun yuqori tezlikdagi internet tarmog'idan foydalanish uchun Wi-Fi zonalar tashkil etilganmi?*
- ❖ *Ta'lim tashkilotidagi kompyuterlarning texnik ko'rsatkichlari qanday va ular internet tarmog'iga ulanganmi?*
- ❖ *Tinglovchilar va pedagog xodimlar internet tarmog'idan foydalanishlari uchun qo'shimcha qanday qurilmalar (noutbuklar, planshetlar va boshqalar) mavjud?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Kompyuter va internet jihozlari ro'yxati*
- ✓ *Internet tarmog'iga ulanganligini tasdiqlovchi hujjat (shartnoma)*
- ✓ *Wi-Fi zonalarni tashkil etilganligini to'g'risidagi ma'lumotlar*

**29.2. INDIKATOR**

**Ta'lim dasturi bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish, baholash va monitoring qilish uchun LMS va (yoki) ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimlari joriy etilgan va amalda qo'llanilmoqda**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *O'quv jarayonini raqamlashtirish holati qanday holatda?*



- ✓ Platformada ishtirok etuvchi pedagog va tinglovchilar

### 29.5. INDIKATOR

**Raqamli ta'lim resurslari va LMSdan foydalanishni boshqarish bo'yicha mas'ul xodim hamda texnik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari mavjud.**

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Raqamli ta'lim resurslari va LMSdan foydalanishni boshqarish bo'yicha mas'ul xodim biriktirilganmi?*
- ❖ *Axborot xavfsizligi bo'yicha ichki qoidalar va Texnik qo'llab-quvvatlash reglamenti bormi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *Axborot xavfsizligi bo'yicha ichki qoidalar*
- ✓ *Mas'ul xodimni belgilash to'g'risidagi buyruq*
- ✓ *Texnik qo'llab-quvvatlash reglamenti*

### 29.6. INDIKATOR

**LMS, masofaviy ta'lim platformalari va raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha pedagoglar va tinglovchilar uchun muntazam o'quv-seminarlar, treninglar va vebinarlar tashkil etib boriladi\*\***

**Yordamchi savollar:**

- ❖ *Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari boshlanishidan oldin pedagoglar va tinglovchilar uchun LMS, masofaviy ta'lim platformalari va raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha seminarlar, treninglar va vebinarlar tashkil etish reja-grafigi ishlab chiqilganmi?*
- ❖ *O'tkazilgan seminar/treninglar hujjatlashtirib borilganmi?*

**Asoslantiruvchi hujjat(lar):**

- ✓ *O'quv-seminar va treninglar reja-grafigi*
- ✓ *O'tkazilgan seminar/treninglar bayonnomalari*

**Izoh:**

! Majburiy mezonlar;

\*majburiy indikatorlar;

\*\*faqat amaldagi ta'lim dasturlari uchun foydalaniladigan umumiy indikatorlar.

## ICHKI BAHOLASH NATIJALARI BO'YICHA XULOSA

Ichki baholash natijalari bo'yicha xulosa ta'lim dasturi faoliyatining davlat ta'lim talablari, maxsus davlat akkreditatsiyasi mezonlari, milliy malaka ramkasi hamda kasbiy standartlarga muvofiq holda aniq va qisqa ifodalanadi.

**Misol uchun:** Ta'lim dasturining tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash, o'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash, tinglovchilar faoliyati, inson resurslari, moddiy-texnik ta'minot yo'nalishlardagi faoliyati davlat ta'lim talablari va akkreditatsiya mezonlari asosida har tomonlama baholanadi.

Ta'lim dasturida aniqlangan kuchli jihatlar (Strengths) ta'lim natijalarining aniqligi, mehnat bozoriga yo'naltirilganligi, ish beruvchilar bilan hamkorlik, xalqaro aloqalar, bitiruvchilar bandligi hamda pedagoglar salohiyati qisqacha va aniq shaklda keltiriladi.

Aniqlangan kamchiliklar va xavflar (Weaknesses/Risks), ya'ni ta'lim standartlar yoki indikatorlarga to'liq javob bermaydigan jihatlar, resurslar, kadrlar yoki infratuzilma bilan bog'liq muammolar, ta'lim natijalari va amaliyot o'rtasidagi nomutanosibliklar, bitiruvchilarni munosib ish topishidagi muammolar ochiq va aniq sabablar bilan ko'rsatiladi.

Manfaatdor tomonlar (tinglovchilar, pedagoglar, ish beruvchilar) fikrining umumlashtirilgan natijalari bo'yicha umumiy xulosa raqamlar bilan beriladi.

Ta'lim dasturida ta'lim jarayonini, ta'lim sifatini ta'minlash, moddiy-texnik bazasini takomillashtirish rejalari uchun xizmat qiladigan eng muhim takomillashtirish yo'nalishlari, ustuvor chora-tadbirlar, qisqa va o'rta muddatli o'zgarishlar aniq belgilanadi.

Ichki baholash natijalari bo'yicha umumiy qaror (conclusion statement), ya'ni ta'lim tashkilotining rasmiy munosabati asosida ta'lim tashkilotini maxsus davlat akkreditatsiyasiga tavsiya etish, kamchiliklarni bartaraf etgan holda tavsiya etish yoki takomillashtirish talab etilgan holda qayta ko'rib chiqish bildiriladi.

Takomillashtirish ishlari uchun mas'ul bo'linmalar, keyingi ichki monitoring muddatlari, qayta baholash rejasi qisqacha qayd etiladi.

**MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASI UCHUN ICHKI BAHOLASH HISOBOTI  
UCHUN NAMUNAVIY JADVALLAR**

**Ilova:** Ta'lim tashkiloti bo'yicha ichki baholash hisoboti **quyidagi ketma-ketlikda shakllantiriladi:**

1. Titul varaqasi (*platforma orqali avtomatik shakllanadi*);
2. Ichki baholash bo'yicha komissiya a'zolari tarkibi (*keltirilgan 1-namunaviy jadval asosida tasdiqlanadi va platformaga yuklanadi*);
3. Ta'lim tashkiloti strategik maqsadlari (*keltirilgan 2-namunaviy jadval asosida platforma orqali avtomatik shakllanadi*);
4. Ta'lim tashkiloti to'g'risida umumiy ma'lumot (*keltirilgan 3-namunaviy jadval asosida platforma orqali avtomatik shakllanadi*);
5. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish muassasasining maydonlar bilan ta'minlanishiga oid ma'lumot (*keltirilgan 4-namunaviy jadval asosida tasdiqlanadi va platformaga yuklanadi*);
6. Ta'lim dasturi to'g'risida ma'lumoti (*keltirilgan 5-namunaviy jadval platforma orqali avtomatik shakllanadi*);
7. Tinglovchilar kontingenti to'g'risida ma'lumot (*keltirilgan 6-namunaviy jadval platforma orqali avtomatik shakllanadi*);
8. Ta'lim dasturi bo'yicha amaliyot bazalari (**ko'chma mashg'ulot o'tash joyi**) (*keltirilgan 7-namunaviy jadval platforma orqali avtomatik shakllanadi*);
9. Pedagog kadrlar bilan ta'minlanganligi hamda ularning ilmiy-pedagogik salohiyati to'g'risida (*keltirilgan 8-namunaviy jadval platforma orqali avtomatik shakllanadi*);
10. Ta'lim dasturlarini samarali amalga oshirish uchun professor-o'qituvchilar tarkibining dars bergan (beradigan) fanlari haqida ma'lumot (*keltirilgan 9-namunaviy jadval asosida tasdiqlanadi va platformaga yuklanadi*);
11. Ta'lim tashkilotining joriy o'quv yilidagi moddiy-texnik va o'quv laboratoriya bazasi haqida ma'lumot (*keltirilgan 10-namunaviy jadval asosida tasdiqlanadi va platformaga yuklanadi*);
12. Ta'lim dasturlari doirasida o'tiladigan fan (modul)larning darslik va o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlanganligi to'g'risida ma'lumot (*keltirilgan 11-namunaviy jadval asosida tasdiqlanadi va platformaga yuklanadi*);
14. Ta'lim dasturlarini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi (*keltirilgan 12-namunaviy jadval asosida tasdiqlanadi va platformaga yuklanadi.*)

“TASDIQLAYMAN”

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ F.I.Sh.

“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 202\_\_-y.

“

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_”

ta'lim dasturini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish bo'yicha

## ICHKI BAHOLASH HISOBOTI

Hudud -20\_\_ y

1-namunaviy jadval:

**"TASDIQLAYMAN"**

\_\_\_\_\_ F.I.Sh.

"\_\_" \_\_\_\_\_ 20\_\_-y.

**Ichki baholash bo'yicha komissiya a'zolari**

**TARKIBI**

T/r	F.I.Sh.	Lavozimi
1.		
2.		
3.		
4.		
5.		
6.		

2-namunaviy jadval:

**Ta'lim tashkiloti to'g'risida umumiy  
MA'LUMOT**

<b>Nomi:</b>	
<b>Tashkil etilgan yili:</b>	
<b>Tashkil etish asosi:</b>	<i>(normativ-huquqiy hujjat, litsenziya yoki boshqalar)</i>
<b>Mulkchilik shakli:</b>	
<b>Jami ta'lim dasturlari soni:</b>	
<b>Jami pedagoglar soni:</b>	
<b>Jami tinglovchilar soni:</b>	
<b>Rasmiy elk. pochtasi:</b>	
<b>Rasmiy veb-sahifasi:</b>	
<b>Rasmiy tel. raqami:</b>	
<b>Manzili (asosiy):</b>	
<b>Manzili (qo'shimcha):</b>	
<b>Davlat akkreditatsiyasi uchun mas'ul shaxs to'g'risida ma'lumoti</b>	
<b>F.I.O.:</b>	
<b>Lavozimi:</b>	
<b>Rasmiy elk. pochtasi:</b>	
<b>Rasmiy ish tel. raqami:</b>	

**Ta'lim tashkiloti missiyasi:**

3-namunaviy jadval:

**Ta'lim tashkiloti strategik maqsadlari:**

<b>T/r</b>	<b>Strategik maqsadlar</b>	<b>Asosiy vazifalar</b>	<b>2030-yilgacha reja (raqamlar /foizlar)</b>	<b>Hozirgi holat (raqamlar /foizlar)</b>
1.				
2.				
3.				

4-namunaviy jadval:

**Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish muassasasining maydonlar bilan ta'minlanishiga oid ma'lumot**

T/r	Joy nomi	Ta'lim muassasasidagi soni	Ta'lim muassasasi maydoni, m <sup>2</sup>	1 nafar tinglovchi uchun maydon, m <sup>2</sup>	Me'yor talabi, m <sup>2</sup>	Ta'minlaganlik, % hisobida
1	2	3	4	5	6	7
I	<b>Umumiy maydoni (II-III)</b>					
II	<b>Normadagi (ishchi) maydoni</b>					
1.	Umumiy o'quv auditoriyalari					
	<b>shu jumladan:</b>					
	Ma'ruza xonalari					
	Amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun xonalar					
	Laboratoriya xonalari					
	Texnik va maxsus laboratoriya xonalari					
	Kompyuter zallari (sinflari)					
	Chet tili darslari uchun maxsus kabinetlar					
2.	Alohida kabinalarga ajratilgan fonzallari (ovoz yozish va tinglash uchun jihozlangan xona)					
3.	Kurs loyihasi va malakaviy bitiruv ishlari bajarish zallari					
4.	Rektorat, o'quv bo'limi, kafedra va h.k. joylar					
5.	ARM (kutubxona)					
6.	Majlislar zallari					
7.	Sport inshootlari					
	<b>shu jumladan:</b>					
	ochiq sport maydonlari					
	yopiq sport maydonlari					
	suzish havzalari (basseyn)					
	.....					
III	<b>Xizmat ko'rsatish va turar joy maydonlari</b>					
1.	Ovqatlanish joylari (oshxona, bufet va h.k.)					
2.	Tibbiy xizmat ko'rsatish joylari					
3.	Profilaktoriylar					
4.	Tinglovchilar turar joyi (yashash joyi)					

5- namunaviy jadval:

Ta'lim dasturi to'g'risida

MA'LUMOT

1.	Ta'lim sohasi:	
2.	MMR bo'yicha darajasi:	
3.	Ta'lim dasturi kodi:	
4.	Ta'lim dasturi nomi:	
5.	Kvalifikatsiya(lar) nomi:	
6.	O'qitish muddati (to'liq davr uchun, yil):	
7.	Kredit/soati miqdori:	
8.	O'qitish tili:	
9.	Ta'lim shakli:	
10.	Qabul rejasi:	

6 - namunaviy jadval:

Tinglovchilar kontingenti to'g'risida ma'lumoti\*

Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslaridagi tinglovchilar kontingenti

T/r	Ta'lim dasturi		Joriy o'quv yilidagi tinglovchilar soni					
			Ta'lim shakli bo'yicha					
	kodi	nomi	Ananaviy	Masofaviy	Aralash	Muqobil	Dual	Jami:
<b>Malaka oshirish ta'lim dasturi</b>								
<b>Qayta tayyorlash ta'lim dasturi</b>								

7-namunaviy jadval:

**Ta'lim dasturi bo'yicha amaliyot bazalari (ko'chma mashg'ulot o'tash joyi)**

T/r	Ta'lim dasturi		Jami tinglovchilar soni	Amaliyot o'tash joyi (korxonalar va tashkilot nomi)	Amaliyot o'taydigan va/yoki o'tayotgan tinglovchilar soni	Izoh
	kodi	nomi				
<b>Malaka oshirish ta'lim dasturlari</b>						
1						
2						
...						
<b>Qayta tayyorlash ta'lim dasturlari</b>						
1						
2						
...						

**Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malaka oshirish muassasasining yagona axborot tizmi(platformasi)ga oid ma'lumot**

1	Platforma nomi va havolasi	
2	Platforma maqsadi	
3	Qamrov doirasi	
4	Funksional yo'nalishi	
5	Foydalanuvchilar toifasi	
6	Ma'lumotlarni yuritish shakli	
7	Huquqiy asosi	
8	Integratsiya imkoniyati	
9	Platformaga joylashtirilgan ta'lim resurslari soni)	
10	Masofaviy ta'lim shakli mavjud bo'lgan muassasalarda o'quv jarayonini tashkil etishda belgilangan talablarning amalda bajarilish holati	

*Izoh. Ta'lim jarayonini boshqarish va monitoring qilish bo'yicha axborot tizimi (platforma, LMS) mavjud tashkilotlar uchun.*



9-namunaviy jadval:

Ta'lim dasturlarini samarali amalga oshirish uchun professor-o'qituvchilar tarkibining dars bergan (beradigan) fanlari haqida ma'lumot

T/r	Professor- o'qituvchilarning F.I.Sh.	Tug'ilgan yili (kun.oy.yil)	Lavozimi	Stavkasi	Tugatgan OTT nomi	OTTni tugatgan yili	Bakalavr diplom mutaxassisligi. Magistr diplom mutaxassisligi.	Ilmiy darajasi (qaysi ixtisoslik bo'yicha ekanligi to'liq yozilishi lozim)	Ilmiy unvoni (qaysi ixtisoslik yoki kafedra bo'yicha ekanligi to'liq yozilishi kerak)	Yakka mualliflikda yozgan o'quv qo'llanma va darslik nomi (nashr guvohnoma raqami va sanasi)	Qaysi yildan kafedrada ishlaydi	Oxirgi 3 yilda malaka oshirganligi		Qaysi fan (modul)lardan dars berishi (to'liq yozilishi shart)
												Respublika	Xorijda	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
<b>Asosiy shtat</b>														
1														
2														
<b>Ichki o'rindosh</b>														
1														
2														
<b>Tashqi o'rindosh</b>														
1														
2														
<b>Soatbay</b>														
1														
2														

10-namunaviy jadval:

**Ta'lim tashkilotining joriy o'quv yilidagi moddiy-texnik va o'quv laboratoriya bazasi haqida ma'lumot**

T/r	Moddiy-texnik va o'quv laboratoriya bazasi nomi	Jihoz, asbob-uskuna va inventarlar nomi	O'lchov birligi	Soni
1.	Axborot resurs markazi	Jami o'quv- uslubiy adabiyotlar fondi		
		Inklyuziv ta'lim oluvchilar uchun maxsus o'quv materiallarining mavjudligi		
		Jami kompyuterlar soni, shu jumladan internetga ulanganlari soni		
		"Scopus" va "Web of Science" kabi xalqaro ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyatlarining yaratilganligi		
2.	AKT vositalari	Kompyuterlar soni. Shundan		
		<i>O'quv jarayonida qo'llanilayotganlari soni</i>		
		<i>Inklyuziv ta'lim oluvchilar uchun maxsus AKT vositalari soni</i>		
		<i>Kompyuter sinflari va ulardagi kompyuterlar soni</i>		
		<i>Internetga ulanganlari soni</i>		
		Videoproyektor		
		Elektron doska		
3.	Amaliy mashg'ulot xonasi, laboratoriya va ustaxona (poligon)	Masofaviy ta'lim oluvchilar uchun videokontentlarni tayyorlash uchun media markazlarning tashkil etilganligi		
		Texnikalar*		
		Jihozlar*		
		Asbob-uskunalar*		
		Inventarlar*		

4.	Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun xom ashyo materiallari	Xom ashyo materiallari:*		
		Yoqilg'i moylash materiallari:*		
	Boshqalar			

**Izoh:** \* Asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalar ro'yxati yoziladi

11-namunaviy jadval:

Ta'lim dasturlari doirasida o'tiladigan fan (modul)larning darslik va o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlanganligi to'g'risida  
MA'LUMOT

T/r	Ta'lim dasturi		Fan (modul) nomi	O'quv adabiyot nomi	Muallif (lar)	Nashr qilingan yili	ARMdagi soni	Elektron shaklda bo'lsa "4" belgisi qo'yiladi	Asosiy adabiyotlarning ta'lim dasturiga mosligi	Fanni o'qitishga mas'ul kafedra nomi
	kodi	nomi								
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11

12-namunaviy jadval:

**Ta'lim dasturini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar  
REJASI**

<b>T/r</b>	<b>Aniqlangan kamchilik/takomillashtirish tashabbusi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Muddati</b>	<b>Mas'ul bo'linma yoki shaxs</b>	<b>Kutilayotgan natija</b>
1.					
2.					
3.					
4.					

## FOYDALANILGAN MANBALAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida" O'RQ-637-son qonuni. *Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03/20/637/1313-son.*
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PF-76-sonli Farmoni. *Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 06.05.2025-y, <https://lex.uz/docs/7513052>*
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 498-son qarori. *Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.08.2025-y, <https://lex.uz/docs/-7671324>.*
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi direktorining 2025-yil 14-noyabrdagi "Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda baholash mezonlari bo'yicha indikatorlarni tasdiqlash haqida"gi 8-son buyrug'i (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 22-dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3747 <https://www.lex.uz/uz/docs/-7977204>*).







O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI

**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH  
MILLIY AGENTLIGI**

Murojaat uchun

- +998 55 505 30 30
- [www.nqaae.uz](http://www.nqaae.uz)
- [info@nqaae.uz](mailto:info@nqaae.uz)
- 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani,  
Universitet ko'chasi, 7-uy.